

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Fransuz frazeologizmlari alohida semantik stilistik birlik sifatida.	
1.1.Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida.....	8
1.2. Frazeologik birlik leksik-semantik sath doirasi	15
1.3 Fransuz tilida frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari	24
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	30
II bob. Fransuzcha frazeologik birliklarning etimologiyasiga doir.	
2.1. Fransuzcha frazeologik birliklar etimologiyasidagi ma'noviy mutanosiblik holati.....	33
2.2 Frazeologik birliklarning ishlatilish doirasi	43
2.3 Zamonaviylik belgisiga ko'ra frazeologik birliklarning turlari.....	45
2.4 Fransuzcha frazeologik birliklarning tarjimadagi talqini.....	47
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	50
III bob. Fransuz tilida frazeologik birliklarning funksional xususiyatlari.	
3.1 Fransuz frazeologizmlarining vazifalar.....	55
3.2 Fransuz tilida FBlarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya.....	60
3.3 Sinonim, antonim FBlarning o'ziga xos semantik-funksional xususiyatlari.....	65
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	69
Xulosa.....	72
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	75

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy davlatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish yana ham rivojlandi. Respublikamizning viloyatlari, ko'p shahar va tumanlari chet el sarmoyadorlari bilan birgalikda juda ko'plab qo'shma korxonalar ochildi. Bulardan tashqari, yurtimizda ko'pgina xalqaro musobaqalarning o'tkazilishi, xalqaro tashkilotlar, vakolatxonalarning rasmiy faoliyat olib borayotgani, mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning soni kundankunga ortib borayotgani xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda 1875-son qaroriga muvofiq chet tillarni o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatini yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi¹.

“Hozirgi davrda chet tilini o'rganish va o'qitish katta e'tibor kasb etmoqda. Bu, albatta bejiz emas. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashga intilayotgan davlatimiz uchun chet tillarni mukammal bilishning naqadar muhimligi mubolag'a emas, zero xalqimiz o'zining buyuk kelajagi chet ellik sheriklar bilan o'zaro bog'liq ekanini juda yaxshi biladi. O'zbekiston jamiyatining milliy xususiyatlariga asoslangan va insoniyat qadr qimmatiga mos keluvchi, chet tilini tezroq o'rganish metodini ishlab chiqishimiz kerak”².

Chet tillarni o'rganish hamda o'rgatishga berilgan bunday katta e'tibor fransuz tili sohasida yangidan-yangi tadqiqotlarni ochilishiga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, kishilar o'rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi, ya'ni fikrni boshqalarga yetkazuvchi qurol bu tildir. Shu bilan birga tilda milliy madaniyatning o'ziga xos oynasi bo'lgan, uni saqlovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi vosita sifatidagi frazeologik iboralarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu xalq yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tizimi, og'zaki adabiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati aynan iboralar orqali avloddan-avlodga yetkazib beriladi. Frazeologik birliklar (keyinchalik FB)

¹ Prezidentimiz I.A. Karimovning 2012-yil 10-dekabrda 1875-son qarori

obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Ushbu tadqiqot ishining mavzusi o'tmishda ham bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Buning sababi shundaki, frazeologiyaning alohida fan sifatida shakllanishi qariyb ikki asrni o'z ichiga oladi. Tilshunoslik sohasida frazeologiyani alohida o'rganilishi uchun ilk qadamni mashhur tilshunos Sharl Balli qo'ygan bo'lsa, keyinchalik rus tilshunoslari B.A.Larrin, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, N.N.Amosovalar tomonidan bu sohaga chuqur yondashilgan. Hozirgi kunda frazeologiya borasidagi tadqiqot ishlari tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari doirasida yanada kengroq tadqiq etilmoqda. Xususan, ularga xos pragmatik, kognitiv va lingomadaniy xususiyatlar ko'plab zamonaviy frazeologlarni qiziqtirib kelmoqda.

FBlar o'zlariga xos xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil qiladi, ya'ni FBlarda so'z, so'z birikmalari va gapning zid qo'yilish belgilari ma'lum ma'noda neytrallashib, dialektik birlashadi, yaxlit holatda yuzaga chiqadi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib kelayotgan sistem tilshunoslikda turli xildagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional reja asosida olingan frazeologizmlar orasidagi sistem aloqalarni o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishining asosiy dolzarbligi shundaki, bugungi kunda fransuz frazeologiyasida keng tarqalgan frazeologizmlarining kelib chiqish tarixi, ya'ni etimologiyasi ularni lingvo-kulturologik jihatdan talqin qilish, semantik xususiyatlarini pragmatik va kognitiv nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga xos turli ma'no munosabatlari, ularning nutq momentida qo'llanilish funksiyalari va ularni to'liq tushunishda paydo bo'ladigan ayrim nomutanosibliklar muammosidagi ayrim masalalar echimiga imkon beradi. Frazeologizmlarining etimologiyasi va semantik tahlilini berish va larning stilistik-funksional xususiyatlarini tavsivlash bugungi kun muammolaridan biri sifatida qo'yilishining

asosiy sababi tilshunoslikning va til sohasining rivojlanishi, yangi ma'lumotlarning muhokama etilayotgani, shuningdek, aynan nutqda qo'llanilishi va shu soha yuzasidan olib borilgan ishlarning kamchilikni tashkil qilishidadir.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti. Tilshunoslikning frazeologik qatlami mazkur ishimizning tadqiqot ob'yekti sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot predmeti sifatida esa leksikologiyaning bir bo'limi hisoblangan frazeologiya fanini keltirish mumkin.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi fransuz tilidagi FBlar etimologiyasini, ularga xos semantik-funksional xususiyatlarni o'rganish va ularni struktur-semantik jihatdan talqin qilishdir.

Ushbu qo'yilgan maqsad quyidagi **vazifalar** yechimini taqozo etadi:

- 1) frazeologiyaning tilshunoslik sohasida o'rganilish masalalarini ko'zdan kechirish;
- 2) fransuz tilida FBlarining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash hamda frazeologizmlarini semantik turkumlarga ajratish;
- 3) FBlarining etimologik ma'nosini va ularga xos funksional stilistik buyoqdorligi tarkibini tavsiflash mezonlarini aniqlash;
- 4) ko'p ma'noli frazeologizmlarining semantik tarkibi bilan stilistik buyoqdorligi o'rtasidagi munosabatni, omonim, sinonim, antonim FBlarining o'ziga xos semantik-funksional xususiyatlarini tahlil qilishda etimologik xususiyatlarning ahamiyatini tavsiflash;
- 5) FBlarining kelib chiqish xususiyatlari orqali ularning matnda qo'llanilish usullarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Frazeologiya bo'yicha shu kungacha juda ko'plab tilshunos olimlar izlanishlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar ichida esa asosan, bugungi kunda FBlar etimologiyasi tahliliga kam e'tibor berilgan. Ushbu tadqiqot ishi fransuzcha FBlar etimologiyasiga bag'ishlangan bo'lib, uning natijalari asosida tilshunoslikdagi ayrim frazeologik muammolar o'z echimini topishi mumkin. Xususan, birgina fransuz tili doirasida olib borilgan ushbu tadqiqot natijasida erishilgan umumiy faraz va xulosalar orqali FBlarg

xos etimologik xususiyatarning FBlar semantikasida tutgan o'rnini aniqlashga yordam berishi hamda ularni matn doirasida tushunish imkoniyatlarining bir ko'rinishi ekanligi shular jumlasidandir.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlar. Tadqiqot davomida tahlil qilinadigan asosiy holatlar va farazlar quyidagilardan iborat:

1) Har qanday tilning frazeologik qatlami shu tilda so'zlovchilarning madaniyati, urf-odatlar va milliy xarakteriga bog'liq;

2) Fransuz tili frazeologik fondining asosiy qismini tashkil qiluvchi frazeologizmlar, semantik jihatdan ma'lum bir turkumlarga bo'linib o'rganiladi;

3) FBlar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. FBlarda ob'yektiv bilimlar va insonning ularga nisbatan sub'yektiv munosabatlari aks etgan bo'ladi;

4) So'zlashuv FBlarining asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, xatti-harakatini baholaydi. Shu sababli FBlarning ma'no tarkibida ko'pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element FBning denotativ ma'nosiga emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik vazifasini yuklaydi.

5) Tildagi nominativ birliklar ichida FBlar o'ziga xos semantik-uslubiy xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. FBlar ma'lum bir tushunchani nafaqat nomlash balki uning ichki stilistik o'ziga xosliklarini ifodalash, FB ifoda etayotgan ma'no nozikliklarini ko'rsatib berish xususiyatiga ham ega.

6) Tildagi barcha boshqa birliklar kabi FBlar ham nutq momentida ma'lum bir funksiya bajarib keladi va bu ularning semantik-stilistik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqotning metodologik asosi. Bunda O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning falsafiy va ijtimoiy asarlari, tilshunoslikning umumiy va xususiy nazariyasi, tilshunoslikning frazeologik qatlami doirasida (Sharl Balli, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov, A.G.Nazaryan) olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, tilshunoslikning grammatika, leksikologiya,

frazeologiya va sintaktika borasidagi nazariy yo'nalishlar hamda V.V.Vinogradov, L.V.Sherba, V.G. Gak, A.G. Nazaryan, L.Tener, M. Arrivé, M. Galmiche, M. Grevisse, L. Iliya, Sh.Safarov, A.M.Bushuy, A.Mamatov, J.Yoqubov singari tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Bu xususda ishda kompleks xarakterga ega bo'lgan lingvistik tahlil metodlari keng o'rin egallaydi. Bundan tashqari qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik va statistik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot metodining asosiy salmog'ini tipologik, semantik va tarjima metodlari tashkil qiladi. Tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviri, struktur va distributiv tahlil qilish metodlaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning nazariy ahamiyati quyidagilar orqali belgilanadi:

- fransuz tili frazeologizmlarini semantik–funksional xususiyatlarini tavsiflash;

- fransuz frazeologiyasining hozirgi zamon tilshunosligida tutgan o'rnini hamda frazeologiyaning tilning boyish manbai ekanligini tavsiflash;

- fransuzcha frazeologik birliklarning etimologiyasini o'rganish;

- frazeologik birliklarni kommunikativlikning eng asosiy ko'rinishlaridan biri ekanligini tavsiflash.

Tadqiqotning amaliy qiymati hozirgi zamon fransuz tilidagi frazeologizmlarining etimologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ixtisoslashgan o'quv yurtlarida, bakalavrlikning barcha bosqichlarida fransuz tili o'qitish amaliyotida leksikologiya fanidan nazariy kurslarni o'qitishda, matn tahlili va stilistika fanlarining amaliy mashg'ulotlarida foydalanish tavsiya qilinadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot oldiga qo'ygan asosiy maqsadga erishish barobarida ishda kuzatilgan masalalarning ma'noviy jihatdan izchillik asosidagi ketma-ketlik tarzda o'rganilishi ko'zga yaqqol tashlanadi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Birinchi

bob uchta paragraf, ikkinchi bob ham uchta paragraf va uchinchi bob ikkita paragrafdan tashkil topgan.

Kirish qismida magistrlik dissertatsiyasining oldiga qo'ygan maqsad va vazifalar, mavzuning dolzarbligi, ishning amaliy va nazariy ahamiyatini belgilovchi omillar, himoyaga olib chiqilgan asosiy holatlarning umumiy tavsifi to'g'risida ma'lumot berib o'tilgan.

Birinchi bobda frazeologiyaning rivojlanish tarixi, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, frazeologiyaning umumiy lingvistik mohiyati borasida fikr boradi.

Ikkinchi bobda fransuz tilidagi frazeologizmlarining etimologiyasi va ularning kelib chiqishidagi asosiy omillarga e'tibor qaratiladi va ular ma'lum bir etimologik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilinadi.

Uchinchi bobda esa FBlarining funksional xususiyatlari hamda ularning okkazional qo'llanilshdagi o'ziga xosliklari yoritiladi.

Birinchi bob

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ALOHIDA STILISTIK- SEMANTIK BIRLIK SIFATIDA

1.1. Frazeologiya fani va uning tilshunoslikda tutgan o'рни.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'rganiladi. "*Frazeologiya*" termini grekcha "*pharsis*" fraza, ifoda "*logos*" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyani asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlar hamda qanotli so'zlarni kiritilishiga qarshi bo'lgan va "*maqol va matallar so'z ekvivalenti bo'la olmasligi, hamda shaklan gapga teng bo'lgani uchun frazeologiyani o'rganish obyekti bo'la olmaydi*" deb aytib o'tgan .

Frazeologiyani asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdoshligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning

soʻz turkumlari bilan oʻzaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida soʻzlarning yangi maʼnolari hosil boʻlishini oʻrganish va boshqalar. Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni oʻrganish, tasniflash va lugʻatlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Unda ishlab chiqilgan oʻziga xos, xilma xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur semantik, grammatik, vazifaviy uslubiy asoslarga koʻra tasnif etiladi. Struktur semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazeologiyaning alohida fan sifatida oʻrganilishi bir necha asrlarni oʻz ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab frazeologik muammolarga qiziq boshlashgan. Jumladan, M.V. Lomonosov rus adabiy tili lugʻatini tuzar ekan, bunda soʻzlar bilan bir qatorda “*xalq maqollari*”, “*idiomatizmlar*” va frazemalar ham oʻz ifodasini topgan boʻlishi lozimligini alohida taʼkidlagan edi.

XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan jahon adabiyotida ham frazeologiya sohasiga boʻlgan qiziqish tez surʼatlar bilan oʻsdi. Gʻarb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bagʻishlangan alohida asar yoʻq edi. Umuman “*frazeologiya*” termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan “*Precis de stylistique*” asarida qoʻllanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U oʻzining umumiy stilistikaga bagʻishlangan (1905) va fransuz stilistikasiga bagʻishlangan (1909) asarlarida soʻz birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan.

Birinchi asarda Sharl Balli soʻz birikmalarining toʻrt turini farqlagan:

1) erkin birikmalar (*les groupements libres*) oʻz maʼnosida qoʻllaniladigan birikmalar;

2) odatiy birikmalar (*les groupements usuels*) nisbattan erkin bogʻlangan birikmalar boʻlib tarkibiga baʼzi oʻzgartirishlar kiritish mumkin

3) frazeologik qatorlar (*les series phraseologiques*) bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir maʼno ifodalab keladi, ammo uning komponentlari tartibiga oʻzgartirishlar kiritish mumkin

4) frazeologik birliklar (*les unites phraseologiques*), bunda o'z ma'nosini tamomila yo'qotgan, komponentlari tartibi qat'iy bo'lgan birliklarni kiritadi .

Ikkinchi kitobida esa Balli birikmalarning faqatgina ikki turini farqlaydi. U keyingi asari, ya'ni fransuz stilistikasiga bag'ishlangan asarida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan .Umuman Sharl Balli frazeologiya sohasida tadqiqotni boshlab bergan ilk tilshunoslardan edi. Keyinchalik bu sohada juda ko'p muvoffaqiyatlarga erishildi .

Frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo'limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo'lib u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo'limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: *"Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning gramatik ma'nolarini, sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda."* U tilshunoslikda frazeologiya ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir .

B.A. Larin Polivanovdan so'ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo'limi sifatida o'rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. U *"Frazeologiya tilshunoslik bo'limi sifatida hali "yashirin rivojlanish bosqichida"...u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo'lgani yo'q...ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba'zan leksikografiya, ba'zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir emas"* deb ta'kidlab o'tgan.

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov ham ko'rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o'z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatda tan olinmadi. Chunki

Vinogradov frazeologiyani keng planda tahlil qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy so'z birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi. Umuman V. V. Vinogradov tilda frazeologik birliklarni alohida belgilashni taklif qilmagan, frazeologik birliklarni so'zlar bilan haddan ortiq yaqinligini hisobga olgan holda, u o'zining teoriyasini so'zning grammatik tahlili doirasiga kiritgan .

Shunday qilib frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi juda ko'p bosqichlarni bosib o'tgan. Xususan, frazeologiyaning rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga bo'lish mumkin:

Birinchi davr XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi M.N. Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F. Fortunatov, A.A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq.

Qayd etish o'rinliki, birinchi davrda frazeologiya leksikografiya ya'ni amaliy lug'atshunoslik obyekti bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda ko'proq lug'atlarda qayd ettirish, ularning ma'nolarining etimologiyasini izohlash, talqin etishga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Ikkinchi davr, E.D. Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy kabi tilshunoslar ilmiy faoliyati bilan bog'liq holda rivojlandi va XX asrning 30-50-yillarini o'z ichiga oladi. Bu davrni frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri deb ham aytish mumkin.

Uchinchi davr XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qo'llanilishi frazeologiya sohasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va ko'plab frazeologiya mutaxassislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida shakllanishi haqiqatdan uzoq davonli yo'llarni bosib o'tdi. Hatto, atoqli ingliz tilshunosi Smirnitskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik bo'limi sifatida ajralib chiqishini qo'llab-quvvatlagan. U o'zining Ingliz tili sintaksisiga bag'ishlangan

asarida bu soha haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: *"Frazeologik birikmalar tadqiqi bilan leksikologiyaning bir qismi bo'lgan frazeologiya shug'ullansa ham, bu birliklar tilning sintaktik sathida tahlil qilinishi lozim. Agar bu sohani alohida bo'lim ekanligi tan olinmas ekan, qanday qilib biz uni fan deb atay olamiz.*

Frazeologik birliklar tilning lug'at tarkibini tashkil qilguvchi, mazmunan bitta so'zga teng birliklar bo'lgani uchun ko'p yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, FBlarning so'zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo'lgan masalalardandir. Sharl Balli ta'limotiga binoan FBlarning eng muhim belgisi yagona bir so'z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmasligidadir. Bunday so'zni Sharl Balli so'z-identifikator deb atagan va bunday o'zgarishlarni FBlarning ichki yaxlitgi belgisi sifatida talqin qilgan.

Ammo buyuk tilshunosning bunday qarashlariga to'g'ri kelmaydigan holatlar ham til tizimida kuzatiladi. Masalan, fransuz tilida juda ko'p FBlarning so'z-identifikatorlari mavjud emas, ya'ni ularni ma'nosini yagona bir so'z bilan ifodalashning iloji yo'q.

Shuningdek, tilni frazeologik fondini tashkil qiluvchi maqol va matallar identifikatori faqatgina gaplar bo'lishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik lozim. Masalan, *Aide-toi, le Ciel t'aidera, il n'y a que le premier pas qui coûte*.

Shundan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarni tilning boshqa birliklaridan farq qiluvchi, o'ziga xos ma'no va tuzilishga ega bo'lgan birliklardir deb bimalol aytsak bo'ladi. Ularni so'z ekvivalenti sifatida ko'rib chiqish faqat sohani chalkashtirish, qiyinlashtirishga olib boradi. Albatta frazeologik birliklar va so'zlar umumiy jihatlarga ega, ammo bu umumiyliklni bo'rttirib ko'rsatish kerak emas. Xususan, ularni o'ziga xosliklarini quyidagicha ifodalab ko'rsatsak bo'ladi:

1. FBlar va so'zlar tuzilish jihatdan ham semantik jihatdan ham alohida, alohida birliklar hisoblanadi.

2. Frazeologizmlar bir butun holda, yoki qisman ko'chma ma'noga asoslangan, so'z birikmasi yoki gap shaklidagi birliklar hisoblanadi. Turg'unlik, struktur-semantik jihatdan yaxlitlik ular uchun xos jihatlardir. So'zlar esa ular kabi

soʻzlardan emas morfemalardan tashkil topgan boʻladi. Soʻzlar lugʻaviy maʼnosida ham koʻchma maʼnoda ham qoʻllanila oladi. Soʻzlarda frazeologik birliklar uchun xos boʻlmagan prefikssatsiya va affikssatsiya hodisalari kuzatiladi. Tildagi barcha soʻzlar bir biri bilan paradigmatic munosabatga kirisha oladi, ammo FBlarda bunday xususiyat mavjud emas.

3. Soʻzlar va FBlar tilning turli sathiga xos birliklardir, frazeologizmlar – frazeologik sath birliklari boʻlsa, soʻz leksik sath birligidir.

4. Tilning turli sathlariga oidlik FBlni nafaqat farqlaydi balki ularning aloqadorligini ham koʻrsatib beradi. Masalan ularning har ikkalasida ham bir xil sintaktik funktsiya bajarish kuzatiladi. Shuningdek ularning har ikkalasida ham koʻp maʼnolilik va omonimiya, antonimiya sinonimiya kabi maʼno munosabatlari kuzatiladi .

Frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak boʻladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyati va oʻziga xosligini koʻrsata oladi. Frazeologizmlar asosan millat anʼanalari-yu, urf–odatlarini, oʻzida mujassamlashtiradi. Ammo fransuz tili frazeologiyasida milliy anʼanalarni ifodalab keluvchi FBlar bilan bir qatorda internatsional frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Baʼzi FBlarda arxaik elementlar ham saqlanib qolgan.

Frazeologizmlarni nutqni bezovchi vosita sifatida qarash mutloq notoʻgʻri boʻlib, ular ham boshqa til birliklari kabi yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va kommunikativ funktsiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologizmlar universal til vositalari boʻlib, ularsiz til mavjud emas.

Fransuz tili frazeologiyasida, fransuz tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nisbatan kam foizni tashkil qilib, asosiy frazeologik muammolar yaʼni frazeologik birliklar va soʻzlarning oʻzaro munosabati, FBlar variantdoshligi, frazeologiyani oʻrganish metodlari, frazeologiyaning fan sifatida rivojlanishi kabi nazariy muammolar asosan rus tilshunoslari, A.V Kunin, V. V. Vinogradov, H.M. Shanskiy, T.N. Fedulenkovalar tomonidan ishlab chiqilgan .

Frazeologiya nihoyatda murakkab soha boʻlib, uning tadqiq etish barobarida oʻziga xos tadqiqot usullaridan, shuningdek boshqa sohalar, xususan,

leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlaridan ham xabardor bo'lish lozim. Chunki frazeologiya bevosita yuqorida sanab o'tilgan fanlar bilan aloqador .

Ma'lumki, har qanday FB so'zlardan tashkil topgan bo'ladi. So'z esa leksikologiyaning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Leksikologiya va frazeologiyaning o'zaro bog'liq sohalardan ekanligi shunda namoyon bo'ladiki, FB komponentlari bo'lmish so'zlar tahlilida, albatta, leksikologiyaga oid ma'lumotlarga murojaat qilinadi. Shuningdek, ko'p yillar davomida frazeologiyani leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o'rganilishi ham bu ikki soha bevosita bir-biri bilan aloqadorligini isbotlaydi .

Semantikada tadqiq etiladigan leksik ma'no xususiyatlari, aynan FBlarining semantik o'ziga xosliklarini ifodalash va frazeologik ma'noning turli tiplarini ajratishga xizmat qiladi .

Frazeologik birlik tarkibidagi so'z har doim ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotmaydi, morfologiya saqlanib qolgan va yo'qotilgan xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi.

Frazeologiya tarkibida turli xil strukturali ya'ni so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi birikmalar kiritiladi. Sintaksisga oid ma'lumotlardan yuqoridagi kabi birliklar grammatik va funksional tahlilida foydalaniladi.

Frazeologizmlarning stilistik imkoniyati juda ahamiyatli hisoblanadi. Frazeologik stilistika, FBlarining uslubiy xususiyatlarini tadqiq etadi va bu sohada leksik uslubshunoslik tajribasiga, turli stilistik birliklar tahliliga suyanadi. Zero FBlar tilda nominativ funksiya bajarish bilan bir qatorda, ma'lum bir emotsionallikka, ekspressiv xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Til tarixi hamda etimologiya FBlarining etimologik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransuz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiati o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlari hamda

tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Ularda bolalar milliy o'yinlari, pul birliklari to'g'risida, milliy tabobat, ov hamda baliq ovi haqida, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida, insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi va turmush tarzi va ko'plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo'ladi.

Milliy-madaniy semantika tilshunoslikning barcha bo'limlarida, morfologiyada ham sintaksisda ham xattoki fonetikada ham aks etgan bo'ladi. Faqat u millat madaniyatini bevosita aks ettira oladigan, yaxlit, so'zlashuv nutqida ko'p qo'llanadigan frazeologik birliklarda yorqinroq ifodalanadi.

Shunday qilib, frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

1.2. Frazeologik birlik leksik-semantik sath doirasida

Frazeologiya so'zi grekcha *phrasis* so'zidan olingan bo'lib, *ibora*, *nutq qurilmasi* degan ma'noni anglatadi. Bu so'z ikki xil ma'noni anglatadi. Birinchisi tilshunoslikning turg'un birikmalar, ya'ni frazeologik birliklarni o'rganuvchi ma'lum bir qatlami, ikkinchisi esa frazeologik birliklar majmuini ifodalash uchun xizmat qiluvchi atamadir. *Frazeologik birlik* atamasi tilshunoslikka birinchi bo'lib V.V.Vinogradov tomonidan kiritilgan. *Frazeologik birlik* va *frazeologiya* atamalari bilan bir qatorda *idioma* va *idiomatika* atamasi ham qo'llanadi. Biroq fransuz frazeologiyasida *Frazeologik birlik* atamasi o'rniga *locution* atamasi ishlatiladi. Ammo ushbu atamaning qo'llanishi keng qamrovli bo'lganligi sababli uni frazeologiyaning asosiy atamasi sifatida talqin qilish noo'rin. Negaki, bu atama fransuz tilidagi barcha iboralarni, frazeologik va nofrazeologik birliklarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu atamadan tashqari, fransuz frazeologiyasida *locution figée*, *expression idiomatique*, *idiotisme* kabi atamalar ham keng tarzda qo'llanadi. Shuningdek, *locution phraséologique* atamasi ham mavjud bo'lib, u fransuz

frazeologiyasiga Sh.Balli tomonidan kiritilgan, biroq u ham keng tarzda qo'llanilish xususiyatiga ega emas. Til ko'rinishining lug'at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug'at sathida frazeologik qatlam (uni o'rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi.

Frazeologiyaning hajmini keng tushunish va tor tushunish mumkin. Keng tushunishga frazeologiya doirasidagi so'zlarning turg'un birikmalardan tashqari maqol, matal, aforizmlar mansub deb qaraladi. Frazeologiya deb, so'zlarning semantik jihatdan bog'lanishini ham tushunish mumkin. Bu hodisalardan faqat bir so'zning turg'un birikmalarini - tip birligi deb baholash mumkin.

Frazeologik birlik deb, so'zlarning barcha turg'un birikmalarini emas balki shulardan bir qismi tan olinadi. Frazeologik birlik bo'lish uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart. Frazeologik birikmalardan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'z komponentlariga xos leksik ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraning ma'nosi umumlashma ma'noning maxraj ma'nosi sifatida nomoyon bo'ladi. Tilda ham shakl va ma'no mavjud. Tilda shakl deb tilning materiyasi tovush ko'zda tutiladi. Bu tilning ifoda plani deb ham yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farq qiladi. Til hodisasini ko'pincha yozib ko'rsatamiz. Shu sababli yozuv asosiy shakldek tuyiladi. Asli til-tovush til, yozuv shu tovush tilning grafik tarzda ifodalanish sistemasi. Masalan *bête* so'zining shakli (ifoda plani) *b,ê,t* harflari bilan yozib ko'rsatiladigan shu uch tovushning xuddi shunday tuzilishiga teng. Yolg'iz shaklning o'zi hali til birligi emas. Til birligi bo'lishi uchun ma'lum shaklga ma'lum bir mano biriktirilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligining mazmuni plani deb yuritiladi. Bunday ma'noning bir shakli nutqning o'zida kashf etilmaydi, balki bunday ma'no biror shaklga tilda biriktirilgan bo'ladi. Masalan: *bete* so'zi *grosse bete* so'zi birikmasida salbiy xislatga ega. *Inson* ya'ni *ahmoq, tentak. esi past* ma'nosini anglatadi. Demak, ma'lum shakl *bete* tovush tizimi va ma'lum bir ma'no birgalikda til birligini gavdalantiradi.

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so'zlardan) tarkib topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb leksemalar va ularni bog'lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko'zda tutiladi. Tarkibli leksema va morfemalar ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birligiga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalanadi. Qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi.

Variantlanish - barcha til birikmalariga shu jumladan iboralarga xos hodisa. Ko'p variantli iboralarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil qiladi. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi. Bir iboraga xos obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi.

Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada sodir bo'ladi. Aks holda bu ibora yo'qqa chiqadi yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi. Varianti ko'p iboraning har xil variantida boshqa so'z komponenti almashinishi mumkin. Shu sababli ba'zi variantlarning leksik tarkibida asosiy variant bilan umumiylik yo'qoladi. Bunday hollarda variantlarning bir-biridan o'sib chiqish tartibini hisobga olish zarur. Keyingi variantlarning barcha asosiy (tayanch) variantiga qiyosiy baholanishi har bir variant o'zi o'sib chiqqan variantga nisbatan belgilanish kerak. Masalan, *bonne main, blanche main - mehribon, g'amxo'r qo'l, grand coeur- bon coeur — samimiy, muruvvatli odam* yoki *bon coeur- bon ami*.

Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar, leksemalar, shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Tarkibli morfemaning leksemaning ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi. Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi. Bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi

shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli iboralarni go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish paydo bo'ladi.

Qismlarga xos ma'nolar umumiy iboradan anglashiladigan ma'noni to'g'ridan-to'g'ri izohlab kelmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik tashkil etadi. Bu yerda bittadan ortiq so'z yahlitligicha ma'lum bir obraz asosida ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Demak frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun plani o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra frazeologik birliklar alohida yondashishni o'rganishni talab qiladi.

Frazeologiyaning o'rganish obyektlarini FBlar, ya'ni turg'un so'z birikmalar, iboralar, nutqdagi barcha frazeologizmlar tashkil etadi.

Leksik–semantik sath tilning bir–biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki katta bo'limini o'z ichiga oladi. Bular leksikologiya (grekcha *lexikos* – *so'zga oid* va *logos* – *o'rganish*) va semasiologiya. O'rganadigan materialiga ko'ra leksikologiya ikkiga bo'linadi: xususiy leksikologiya, ya'ni u yoki bu til leksikologiyasi (masalan, fransuz, o'zbek, rus, nemis va boshqa tillar leksikologiyasi) va umumiy leksikologiya. Umumiy leksikologiya barcha tillarga tegishli muammolarni o'z ichiga oladi va turli xil til materiallariga e'tibor qaratadi. Umumiy va xususiy leksikologiya bilan bir qatorda qiyosiy va solishtirma (kontrastiv) leksikologiya ham mavjud. Qiyosiy leksikologiya birinchi navbatda qardosh tillarning o'xshash tomonlarini, solishtirma leksikologiya esa nafaqat qardosh tillar, balki qardosh bo'lmagan tillardagi o'xshash va mos tomonlarni o'rganadi.

So'zning leksik ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan keng muammolar ko'lamini semasiologiya predmeti o'z ichiga oladi. «*Semasiologiya*» atamasi grekcha *semacia* – *ma'no* va *logos* – *o'rganish* so'zlaridan tashkil topgan. Ba'zi hollarda grekcha *semaino* – *ifodalayman* degan ma'noni anglatadi.

«Semasiologiya» atamasiga sinonim sifatida «semantika» atamasi ham ishlatiladi. Soʻz maʼnosiz umuman mavjud boʻlmasligi kabi leksikologiya va semantika ham bir–birlarisiz mavjud boʻlmaydi.

Leksikologiya tilning butun lugʻat tarkibini oʻrganadi. U leksika tarkibidagi tarixiy oʻzgarishlarni aniqlaydi, aniq tamoyillar asosida boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlar, arxaizmlar, neologizmlar, badiiy til leksikasi, jargonli, hududiy, shevaga xos terminologik, mutaxassislikka oid va boshqa leksik jihatdan boʻlingan soʻzlarning turli xil leksik kategoriyalari va turlarini koʻrib chiqadi.

Semasiologiya oʻrganish obyekti umuman tilga xos maʼno emas, balki leksik maʼnodir. Semasiologiya til leksikasini maʼlum bir aniq nuqtai nazar, yaʼni maʼno aspekti nuqtai nazaridan oʻrganadi. Demak, butun leksikani leksikologiya oʻrganar ekan, semasiologiya esa uning maʼlum bir boʻlimi hisoblanadi va u leksikologiyaga nisbatan tobidir.

Semasiologiya leksik birliklarning maʼnoviy tomonini oʻrganadi va u leksik maʼno tabiati, turlari, soʻz maʼnosining rivojlanish qonuniyatlari, soʻz maʼnosi oʻzgarishining turli xil tasniflashga doir muammolarini hal etadi. XIX asr anʼanaviy tilshunosligida semasiologik tadqiqotlarning asosiy vazifasi alohida soʻz va FBlarga xos semantik oʻzgarishning turlarini va kelib chiqish sabablarini tadqiq qilishdan iborat edi. Til lugʻat tarkibini sistema sifatida oʻrganish va tildagi alohida maʼnoli elementlarning oʻzaro bogʻliqligini oʻrganish XX asr boshlarida til tarixidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Leksik–semantik sath leksik birliklarga xos maʼnoviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma–xillikning oʻziga xosligini, ularning bir–biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan boʻlgan oʻzaro aloqadorligini (leksik paradigmatika), soʻzga xos belgilarning semantik xilma–xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini (leksik sintagmatika) oʻz ichiga oladi.

Oʻz nomidan, yaʼni «leksik–semantik» atamasidan koʻrinib turibdiki, u sistemaning ikki xil tabiatini oʻrganadi. Birinchidan, leksik semantika tilning semantik sarhadlarida grammatik semantikadan farq qiladi. Ikkinchidan, ushbu

sistema yordamida soʻz semantikasining lugʻat elementi sifatida boʻlinishi yuz beradi.

Leksik sistemani tashkil etadigan nominativ vositalar majmuini lugʻat tarkibidan farqlashda til sistemasi, lugʻat strukturasi va leksik–semantik sistemalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular oʻzlarida soʻz va uning maʼnolari oʻrtasidagi oʻzaro murakkab aloqaning natijasi va ushbu natijalarni umumlashtirishni aks ettiradi. Bunday oʻzaro aloqa tilning ikki sohasi, yaʼni nominativ–tasnifiy va leksik birikish boʻyicha amalga oshadi.

Shuning uchun ham leksik–semantik kategoriyalar ikki xil boʻlishi mumkin. Birinchisi koʻp maʼnoli soʻzlarning leksik–semantik guruhini aks ettirib, tilda semantik variantlar koʻrinishida namoyon boʻladi. Ularning har biri oʻz maʼnolariga ega (leksemalar kabi). Leksemalarning nutqda amalga oshishidagi birliklar *soʻz ishlatish* va *leksam* deb ham ataladi. Bu yerda *leks* – nutq birliklarining belgilari asosida analogiya boʻyicha tashkil topgan atama (yaʼni *morf* (morfema) va *fon* (fonema) kabi). Soʻzning til birligi va nutq birligi sifatida qarama–qarshi qoʻyilishi boshqa atamalar bilan ham berilishi mumkin, masalan, *soʻz–leksema* va *soʻz-boʻlak*. A.I.Smirniskiy ularni leksik–semantik variantlar (LSV) deb ataydi.¹ Boshqacha qilib aytganda, biz soʻzlarning har bir aktda qoʻllanish jarayonida uning aktual (nutqiy) ahamiyatiga eʼtibor qilamiz. G. Paul soʻzning butun mazmunini va ahamiyatini ular ishtirok etadigan alohida aktlarda terminologik jihatdan farqlab berdi, yaʼni birinchisini uzual, ikkinchisini esa okkazional maʼno deb nomlaydi.²

Leksik–semantik kategoriyaning ikkinchi turi maʼlum bir soʻzning maʼnolar majmuini emas, balki bir necha soʻzlardan tashkil topgan soʻzlar guruhining maʼnolarini aks ettiradi. Soʻzlarni alohida guruhlariga ajratish va tasvirlash, soʻzlarning mikrostruktura va paradigmalari, ularni tasniflovchi belgilar, alohida paradigmalarda soʻzlar oʻrtasidagi ichki aloqaning oʻrnatilishi va soʻzlarning boshqa soʻz guruhlari bilan boʻlgan aloqalari leksik–semantik

¹ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М.: ИИЛ, 1959. – С. 42.

² Пауль Г. Принципы истории языка. – М., 1960. – С. 94.

sistemaning umumiy tadqiqot muammolari tarkibiga kiradi va uning asosiy hal qiluv vazifalaridan birini tashkil etadi.

Leksik–semantik sathning asosiy birligini leksema, ya'ni tilning struktur elementi hisoblangan va o'zida leksik ma'nolar yig'indisini mujassam etgan so'z tashkil etadi. So'z so'z birikmalari tarkibiga kiradi, so'z yasovchilar va morfologik kategoriyalarni qurishda ishtirok etadi, morfema va fonemalarni yaxlit bir holatga keltiradi, so'z birikmalari va gap tarkibida xilma–xil tarzda qayta ishlanadi, mustaqil ma'nolar yoki ma'nolar mikrosistemasini anglatadigan belgilarni o'zida aks ettiradi.¹

Barcha zamonaviy tilshunoslar so'zni tilning eng asosiy birliklaridan biri deb hisoblash bilan birga, uning belgi tabiatiga ega ekanligini ham tan oladi. Buning uchun so'zning ma'lum predmet va tovushlar majmui o'rtasidagi shartli aloqaga asoslangan holda aniq bir predmet haqida tushuncha paydo qilish xususiyati boshlang'ich asos bo'lib xizmat qiladi. So'zning jaranglashi (tovushga xos qiyofasi) va borliq hodisasi o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Agar bu shunday bo'lmaganda edi, barcha predmet va hodisalar turli xil tillarda turlicha emas, balki bir xil nomlangan bo'lar edi.

So'z tilning asosiy funksional–struktur va yuqori darajali assimetrik birligi hisoblanadi. U semantik va morfologik strukturalarga hamda murakkab semantik tarkibga ega bo'lib, bu xususiyatlar so'zlarning grammatik guruhlari uchun xarakterli bo'lgan konkret leksik ma'nolarda qat'iy tarzda farqlanadi.

So'z umumsemantik tarkibda umumlashgan kategorial belgi hisoblanadi. U ma'lum bir semantik guruhga kiradigan so'zga xos belgini qabul qiladi. Masalan, so'zning ma'lum semantik turi bilan mos keladigan sema individual so'z semantikasi tarkibiga kiradi. Ko'pchilik tillarda to'liq ma'noli so'zlarga o'xshash semalar u yoki bu so'z turkumiga va leksik–grammatik turga tegishli bo'lishi orqali o'zlarining shakliy ifodasini topadi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, tilga xos har qanday belgi, masalan, so'z yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega,

¹ Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. –С.147.

ya'ni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning ma'lum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning o'zida tilning boshqa elementlari bilan bo'lgan turli xil munosabatlardan o'rin oladi. *«So'z, deb yozadi V.V.Vinogradov, borliqdagi predmet va hodisalarning turli xil tomonlarini umumiy jihatdan aks ettirgan holda ularning real aloqalari boshqa so'zlar bilan bo'lgan aloqalariga mos keladi va turli xil predmetli–ma'noviy hamda stilistik guruhlarda ular bilan aloqa o'rnatadi»*. U bu haqdagi fikrini yana shunday davom ettiradi: *«So'zning leksik ma'nosi nafaqat uning berilgan tushunchaga mos kelishiga bog'liq, balki til sistemasining o'ziga xos xususiyatlariga va so'z turkumlari qonuniyatlariga aloqadorligi bilan ham bog'liq bo'lib, bu holat til sistemasida so'zlarning emotsional va ekspressiv bo'yoqlari orqali konkret leksik aloqalar bilan aniqlanadi»*.¹

Agar til sistemasi turlicha munosabat, aloqa va tarmoqlar majmui bilan tavsiflansa, u holda tilga xos bunday umumlashmalarning har biri tilni tashkil etadigan birliklarning lingvistik tabiatiga asoslanadi, sistema tasvirining o'zi esa ushbu birliklar tasviri asosiga quriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar FBlarga ham taaluqli bo'lib, ular so'zlar singari nominativ va kommunikativ funksiyalarga ega bo'lgan til belgisi hisoblanadi.

Leksik–semantik sath leksik birliklarga xos ma'noviy munosabatlarning barcha qirralarini, ulardagi xilma–xillikning o'ziga xosligini, ularning bir–biri bilan va tildan boshqa mayda sistema elementlari bilan bo'lgan o'zaro aloqadorligini, so'zga xos belgilarning semantik xilma–xilligini tilga xos tarzda ifodalashning shart va shakllarini o'z ichiga oladi.

Tilga xos har qanday belgi, masalan, so'z yoki FBlar ikki tomonlama mohiyatga ega, ya'ni material qiyofa birligi va mazmun birligi. Bular borliqning ma'lum bir parchasini aks ettirgan holda mustahkamlanadi va bir vaqtning o'zida tilning boshqa elementlari bilan bo'lgan turli xil munosabatlardan o'rin oladi.

¹ Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII- XIX веков. – М., 1982. – С.6, 83-84.

Tildagi frazeologik sistema tushunchasini ochib berish obyektning o'zini, ya'ni frazeologiyani tasvirlash jarayoni bilan bog'liq. Bunda undagi birliklar tarkibi, ular o'rtasidagi til va nutq sistemasini qamrab olgan aloqa va munosabatlarga e'tibor qaratilishi lozim.

Shularni ta'kidlash joizki, sintaktik erkin so'z birikmalar fransuz tilidagi mustaqil so'z turkumlarining bir qancha turlarini to'ldirishning muhim manbai hamda til leksik tarkibini boyitishning asosiy vositasi bo'lib hisoblanar ekan, erkin so'z birikmasi bilan frazeologik birlik o'rtasidagi farqni anglab yetish lozimdir. Negaki, ular bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Zero, erkin so'z birikmalar turg'un so'z birikmalardan, ya'ni frazeologik birliklardan o'z tarkibidagi mavjud so'zlarning so'zma-so'z leksik ma'nosi bilan ahamiyatli sanalsa, turg'un so'z birikmalar esa, tarkibidagi mavjud so'zlarning umumiy yig'indisi orqali ifodalanayotgan leksik ma'nosi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagilarga asosan, FBlardagi farqli belgilar sifatida idiomatiklik, turg'unlik, obrazlilik va boshqa xususiyatlarni ko'rsatish mumkin. Keltirilgan xulosalar FBlarining lingvistik mohiyatini aniqlashdagi turli xil izohlarga imkon yaratar ekan, bu holat ularni so'z va mustaqil so'z birikmalaridan farqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1) FBlar so'zdan farqli o'laroq ikki va undan ortiq komponentlardan tashkil topgan va tarkibida bittadan kam bo'lmagan mustaqil so'z mavjud bo'lgan tilga xos alohida ko'rinishli murakkab birlikdir;

2) FBlar mustaqil so'z birikmalaridan farq qilgan holda o'zlaridagi turg'unlik darajasining turlicha ekanligiga qaramasdan, o'z leksik tarkiblarining turg'unligi bilan, so'z birikmalari esa o'z elementlari o'rtasidagi sintaktik aloqaning erkinligi bilan tavsiflanadi;

3) FBlarining eng muhim va xususiyatli struktur belgilaridan biri ularning alohida so'zlardan yasalganligi bo'lib, bunday xususiyat fransuz tilidagi FBlarni so'zlardan farqlar ekan, biroq u muayyan leksik tarkibga va ma'no birligiga ega bo'lgan turg'un nofrazeologik birliklardan farqlay olmaydi;

4) FBlar gapiruvchi nutqida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki ular tilda oldindan tayyor holatda bo'lsa, so'z birikmalari esa nutq jarayonida to'g'ridan-to'g'ri hosil bo'ladi;

5) So'z birikmalari tarkibidagi elementlar gap ichida alohida-alohida gap bo'laklari bo'la olsa, FBlar tarkibidagi elementlar o'rtasidagi grammatik munosabatlar esa faqat shu birikma ichidagina amal qila oladi yohud FB bir butun birlik sifatida gap ichida faqat bir gap bo'lagi o'rnida kelishi mumkin.

1.3. Fransuz tilida frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari

So'z tilda nominativ funksiyaga ega asosiy ammo yagona bo'lmagan birlikdir. Nutqda u boshqa so'zlar bilan birikish xususiyatiga ega bo'lib, uning bu so'z birikmalari yasash funksiyasi sintaktik normalar va qoidalar asosida boshqariladi. Tilda bunday birikmalar turli modellar yordamida belgilab qo'yiladi. masalan, A+N modeli, sifat hamda otdan tuziladigan birikmalarni ifodalab, juda ko'p so'z birikmalari bu model asosida tuzilishi mumkin. Ammo tilda shunday birliklar mavjudki ular ham so'z kabi yagona tushuncha ifodallasada, shaklan so'z birikmasi yoki gapga teng keladi. Bunday birliklar tilda tayyor holda saqlanib nutqqa shundayligicha olib kiriladi va frazeologik birliklar deb ataladi. FB ikki va undan ortiq leksemaning o'zaro semantik bog'lanib umumlashma ko'chma ma'no kashf etishidan vujudga keladi.

Avvalambor, FBlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekanmiz, ularni erkin birikmalardan ajratib ko'rsatuvchi bir necha farqlarini keltirib o'tish joizdir. Birinchidan erkin birikmalar komponentlari tarkibiga turli xil leksik, grammatik o'zgartirishlar kiritish mumkin. Yuqoridagi modelga asosan tahlil qiladigan bo'lsak, "*rouge*" sifati juda ko'p otlar bilan birikib kelishi mumkin va bunda u qizil rangni bildirish ma'nosini saqlab qoladi. (*bonnet rouge, boule rouge, chemises rouge, colère rouge, etc.*), shuningdek bu sifat predmetni bildiruvchi har qanday so'z bilan birikishi va sanoqsiz so'z birikmalari yasashi mumkin (*maison rouge, talon rouge, talon rouge etc.*). Ammo FBlarda komponentlar orasidagi tartib qat'iy bo'lib, turli o'zgarishlar ma'no buzilishiga sabab bo'ladi.

FBlar g'arb tilshunoslari ta'kidlaganidek nutqni yanada ta'sirchan, jonli va ifodali bo'lishi uchun xizmat qiladi. Sinonim so'zlar nutqning otashin, rang barang bo'lishini ta'minlaganidek, FBlar millatning urf-odatlarini, an'analarini, tarixi-yu hozirgi kunini o'zida aks ettiradi.

FBlar tahlilida xarakterli jihat shundaki, ular erkin birikmalardan farqli ravishda sintaktik yaxlit, semantik o'zgarmas birliklar hisoblanadi FB birlik yuqorida keltirilgandek yaxlitlikka ega bo'lishi uchun bir necha xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, ya'ni FB'larni til sathidagi boshqa elementlardan farqlovchi o'ziga xos belgilari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, FBlar uchun xos bo'lgan formal belgilar:

-turg'unlik;

-ikki yoki undan ortiq leksemadan yasalishi;

-asosan so'z birikmasi modelida ifodalanishi;

-tilda tayyor holda saqlanib nutqga shundayligicha olib kirilishi;

Semantik belgilarga FBlar komponentlarining har doim ko'chma ma'noda qo'llanilishi, komponentlar bog'lanishidagi erkinlikning yo'qolishi kabilar kiritiladi.

Funksional belgilariga komunikativlik va nominativlikni kiritishimiz mumkin.

Stilistik belgilariga ta'sirchanligi, nutqni emotsionalligini boyitishi, o'ziga xos baho semalarini o'zida mujassamlashtirib kelishi kabilarni kiritamiz.

FB'larning faqat o'ziga xos bo'lgan, tildagi boshqa birliklardan farqlash uchun xizmat qiladigan kategorial belgilari ham mavjud. Ularning asosiy kategorial belgisi, ularning nutq momentida tayyor birlik sifatida qo'llanilishi hisoblanadi. Chunki FBlar nutq momentida yasalmaydi, to nutqga kirguncha tilda shakllanib, so'zlovchiga ham tinglovchiga tushunarli birlik sifatida saqlanib qolgan bo'ladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, tilda yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan boshqa birliklar ham mavjud bo'lib, ularni FBlar bilan adashtirmaslik lozim. Masalan:

Sitata va afforizmlar: *L'esprit cherche et c'est le coeur qui trouve.*

(George Sand)

Xalq og‘zaki ijodidan epitelar: *Affamés, les enfants ont dévoré la tarte meringuée.*

Perifrazalar: *la ville lumière (Parij), Le Roi-Soliel (Luiz XIV)*

FBlarning yana bir muhim kategorial belgisi ularning turg‘unligidir, ya‘ni ular doimo quyidagi jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi¹:

- domiy yaxlitlik;
- shakliy turg‘unlik;
- komponentlar tartibining buzilmasligi;
- grammatik formaning o‘zgarmasligi;

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan FBlni turli xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsiya qilish mumkin. Ya‘ni tilshunoslikga oid asarlarda FBlning etimologik, struktur-semantik, qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra, yasallishiga ko‘ra, ma‘nosidagi motivatsion pog‘onasiga ko‘ra turkumlarga ajratib ko‘rsatilgan.

FBlning etimologik jihatdan klassifikatsiya qilinganda ularning ikki turi mavjud ekanligi guvohi bo‘lamiz: ma‘lum bir tilning o‘ziga xos FBlni va o‘zlashgan FBlni.

Tilning o‘ziga xos FBlni fransuz urf–odatlarini, dini va tarixi bilan bevosita aloqadorlikda rivojlanadi. Shuningdek ularga mashhur fransuz adabiyotlaridan kelib chiqqan so‘zlar ham kiritiladi.

O‘zlashgan FBlni turli xil manbalardan kirib kelgan bo‘ladi. Masalan fransuz frazeologiyasida “Injildan” o‘zlashgan FBlni salmoqli foizni tashkil qiladi .

Shuningdek, frazeologik fondning anchagina qismi antik mifologiya hamda qadimiy adabiyotlar namunalariga borib taqaladi.

Akademik V.V Vinogradov FBlni ma‘nosidagi motivatsion o‘zgarishlariga ko‘ra ya‘ni frazemadan yaxlitligicha anglashilgan ma‘no bilan uning tarkibidagi

¹ Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // Le français moderne . – Paris, 1973. N3. – P. 213-232.

leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning uch semantik turini farqlaydi¹:

1. Frazеologik butunlik;
2. Frazеologik chatishma;
3. Frazеologik qo'shilma;

Frazеologik butunlikda obrazlilik yuqori darajada bo'ladi. Uning komponentlari orasidagi bog'liqlik asoslangan bo'lib, metaforizatsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazеologik butunlikning boshqa FBlardan farqlovchi, o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bular quyidagilar:

- yuqori darajadagi obrazlilik hamda ayrim hollarda so'z birikmalari bilan omonimlik munosabatiga kirishishi;
- alohida komponentlarning semantik butunligi;
- komponentlar tartibiga o'zgartirishlar kiritila olinmasligi;
- boshqa FBlar hamda alohida so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha olishi;

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, leksemaning leksik ma'nolari hisobga olinmaydigan frazema-frazеologik chatishma deyiladi.

Frazеologik chatishmaning boshqa frazeologik birliklardan farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ba'zan tarkibida arxaizmlarning qo'llanilishi;
- sintaktik jihatdan yaxlitligi;
- komponentlari tarkibining turg'unligi;
- komponentlar leksik ma'nolarining umuman ahamiyatini yo'qotganligi;

V.V. Vinogradov tahliliga asosan FBlarning uchinchi turi bo'lmish frazeologik qo'shilmalar ham turg'un ko'chma ma'noga asoslangan birlik bo'lib, boshqa FBlardan asosiy farqi tarkibidagi komponentlardan biri, o'z lug'aviy ma'nosida qo'llanilishidir.

¹ Виноградов

Frazeologik birikma tarkibiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi sababli erkin birikmalarga yaqin turadi. Ammo shu o'rinda faqat frazeologik birikmalar uchun xarakterli jihatlarni sanab o'tish joiz:

- tarkibida turli semantik-struktur o'zgartirishlar kiritila olinishi;
- komponentlardan biri albatta erkin holatda ishlatilishi;
- ba'zan tarkibida aniqlovchinig ishlatilishi
- komponentlar tartibining o'zgartirila olinishi;

Ba'zi frazeologiyani keng ma'noda o'rganilishi tarafdorlari FBlarning to'rtinchi turini ham farqlab ko'rsatadilar va unga so'zlashuv birliklari hamda qanotli so'zlarni ham kiritadilar. Bu turga maqollar, matallar hamda mashur tilshunoslar va olimlarning afforizmlari ham kiritiladi.

I.B. Arnold ingliz frazeologik birliklarini uch turini farqlagan: *set-expressions*, *semi fixed combinations*, *free phrases* deb ajratilgan birliklar Vinogradov klassifikatsiyasiga to'la mos keladi¹. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz tili frazeologik fondining asosiy qismini frazeologik butunliklar tashkil qiladi.

Buyuk rus akademigi A.V. Kunin FBlarni yasallishiga ko'ra ikki turga ajratadi²:

1. Erkin birikmalar asosida yasaladigan FBlar;
2. FBlar asosida yasaladigan Fblar.

Hozirgi zamon fransuz tilida keng tarqalgan FBlarning aksariyati erkin birikmalar asosida yasalgan bo'lib, ularni o'zini ham bir necha sinflarga ajratish mumkin:

a) Terminologik so'z birikmalarining ma'nolarini o'zgartirish asosida yasaladigan FBlar. Masalan kosmik texnik vositalarga nisbattan ishlatiladigan quyidagi so'z birikmalarining ma'nolari ko'chishi asosida quyidagi frazemalar yasalgan: *launched pad-start* maydonchasi, ko'chma ma'noda boshlang'ich punkt, *link up*-kosmik kemalarni tutashtirmoq, frazeologik ma'noda tanishmoq;

¹ Арнолд

² Кунин

b) Erkin soʻz birikmalari maʼnosini oʻzgartirish asosida yasalgan FBlar: la maison de Roi-qamoqxon, Trojan horse-kompyuter programmasiga zarar yetkazish uchun yasalgan kompyuter programmasi;

c) Alliteratsiya asosida yasalgan FBlar: culture vulture-sanʼat shaydosi; fudge et nudge-noaniq, mujmal:

d) Undov soʻzlar taʼsirchanligini oshirish vositasida yasalgan FBlar: Dieu du bon Dieu!!!!

e) Soʻz birikmalarini buzib talaffuz qilish vositasida yasalgan FBlar.

f) Frazologik birliklar maʼlum bir soʻz birikmasi yoki gapni turli xil holatlarda qoʻllash natijasida ham paydo boʻladi. FBlar yasallishining ikkinchi usuli boʻlmish turgʻun birikmalarning oʻzidan yangi FBlar hosil qilish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

a) konversiya usulida:

b) grammatik shaklni oʻzgartirish vositasida:

c) analogiya vositasida:

d) kontrast vositasida yaʼni maʼlum bir FB ga zid maʼnoli yangi birlik hosil boʻlishi natijasida:

e) maqol va matallarning qisqartirish vositasida

f) boshqa tillardan FBlarining kirib kelishi vositasida ham yangi FBlar yasaladi:

FBlar oʻzlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga koʻra soʻz birikmalari, sodda va qoʻshma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, yaʼni FBlarda soʻz, soʻz birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan fransuz tilshunosligida turli tipdagi soʻz yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar oʻrganilishi muhim. Bu esa fransuz tilshunosligi oldida yangi maqsadlarni ochadi. FBlar til egalari ongidagi, oraliq hodisalar sifatida tebranuvchi va noaniq xarakterga ega. L.V. Sherba xuddi ana shu tebranuvchi va noaniq hodisalar tilshunoslarni eʼtiborini

tortishi zarurligini ta'kidlab o'tgan edi¹. Afsuski so'z va so'z birikmalari va gap uzoq yillar davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarining ierarxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqa til birliklari, jumladan FBlar semantikasi, funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiqqiga soya tashlab turdi.

A.I. Alexina FBlarning ma'no jihatdan bir-biriga yaqinlarini (sinonimlarni emas), masalan ma'lum bir munosabatni ifodalab keluvchi bir xil turkumga xos birliklarni semantik turkumlarga bo'lib o'rganishni taklif qilgan².

FBlar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi murakkab vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy, publisistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shuning uchun ham FBlarni o'rganish stilistikada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek FBlar ixcham ma'no jihatdan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi, chunki hozirgi milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni chuqur bilishni, fikrni ixcham, asosli obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni talab etadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Ma'lumki frazeologik birliklar nutqga mazmun, mohiyat, asoslilik, obrazlilik hamda yorqinlik bag'ishlaydi. Frazeologizmlarning bu xususiyatlari hech qanday badiiy tasvir nazarda tutilmaydigan so'zlashuv uslubida ham aniq saqlanib qoladi. Faqat badiiy talqinda frazeologizmlarning ta'sirchanlik xususiyati yanada yorqinroq namoyon bo'lib, yozuvchi qo'lida FBlar qahramonining madaniyati, ma'naviyati, intellektual salohiyatini yaqqol ifodalay oladigan asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologiya sohasi tilshunoslik bo'limlari ichida nisbattan yosh soha hisoblanib, o'tgan asrning 60-yillaridagina tilshunoslar e'tiborini qozongan. Uni alohida tilshunoslik bo'limi sifatida dastlab rus tilshunoslari E.D. Polivanov va B. A. Larrin lar tadqiq etgan bo'lsa, keyinchlik V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, Smirnitskiy kabi tilshunoslar undagi turli ichki muammolarni yoritish bilan

¹ Шерба

² Алехина

shug'ullanishgan. Umuman frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi fransuzshvetsar olimi Sharl Balli hisoblanadi.

Frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishini tarixiy jihatdan uch bosqichga bo'lish mumkin:

-XVIII asrning o'rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo'lga qo'yilishi M.N.Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F.Fortunatov, A.A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog'liq;

-XX asrning 30-50-yillari E.D. Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy kabi tilshunoooslar ijod qilgan davr;

-XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qo'llanilishi, frazeologiya sohasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va ko'plab frazeologiya mutaxassislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazaridan frazeologiya alohida fan sifatida tan olingan bo'lsada u bevosita leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlari bilan aloqadorlikda rivojlanib bormoqda.

Tilda tayyor holda saqlanadigan birlik sifatida FBlar har doim aniq ma'no, doimiy tarkib hamda strukturaga ega birliklardir. Tilning frazeologik fondi haqida gap ketganda tilshunoslar ularning an'anaviyligi, turg'unligi son hamda sifat jihatidan o'zgarmas birliklar ekanligini alohida ta'kidlab o'tadilar. Tilning frazeologik fondining asosiy qismini tashkil qiluvchi frazeologizmlar etimologiyasi esa, tilda frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi va ularning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Fransuz frazeologizmlari nutqni jonli-rang-barang bo'lishini ta'minlab, unga o'ziga xos ekspressivlik yuklaydi.

Frazeologiyaning tarkibiy qismida so'zlashuv, argo va jargon FBleri eng ko'p tarqalgan uslubiy tip bo'lib, bunday FBlar til frazeologik fondining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Ular xalq og'zaki ijodida, kundalik muloqotda keng

qo'llanilib, umuman uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsional- ruhiy holatlarini ifodalab keladi. Fransuz frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba'zan satirik yoki hajviy uslubiy bo'yoqqa ega bo'lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi.

Ikkinchi bob

FRANSUZCHA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1. Fransuzcha frazeologik birliklar etimologiyasidagi ma'noviy mutanosiblik holati.

Fransuzcha frazeologik birliklarning etimologiyasi xususidagi ishlar bir necha asrlardan buyon fransuz tilshunoslari diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Etimologik izlanishlar, avvalo, fransuzcha FBlarni nazariy jihatdan o'rganishni taqazo etadi. Tadqiqotlar natijasida etimologiya frazeologiyani mustaqil bo'limi sifatida ajralib chiqdi va aynan FBlarning etimologiyasi tadqiqotlar kun tartibiga qo'yildi.

Etimologiya aslida grekcha *"etumologia"*, *"asl ma'no"* so'zidan kelib chiqqan. Etimologiya - har bir so'zning kelib chiqish tarixini, evolyutsiyasini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limi. Etimologiyada so'z va so'z birikmlarining kelib chiqish asoslari aniqlanadi, frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar, frazemalar xususida bahs yuritiladi.

Har bir so'z, frazeologik birliklar ham o'zining kelib chiqish tarixi etimologiyasiga egadir. Ma'lum bir davrda paydo bo'lgan frazeologik birliklar hozirda turli adabiyotlarda, so'zlashuv tilida keng qo'llaniladi.

Izlanishlar natijasi XIX asrga kelib yuksak e'tirofqa sabab bo'ldi. Bunda fransuz tilshunoslarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tishimiz joizdir, albatta. Fransuz tilshunoslari birinchilardan bo'lib FBlar etimologiyasini semasiologiya bilan bog'liq holda o'rganishadi. R.A.Budagov *"Garchi etimologik izlanishlar turli maqsadlarni ifodalasada, ular baribir bir-biriga tayanib ish ko'radilar"*, deb aytib o'tgan edi¹. Bu borada fransuz tilshunoslari to'g'ri yo'ldan ketishgan ular etimologiya hamda frazeologiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishgan. Chunki, frazeologik birliklar tarkibidagi ma'no o'rganilmasdan turib, ularning etimologiyasini o'rganish mumkin emas. Fransuz tilshunoslari aynan shu masala yuzasidan ko'plab ishlar olib bordilar va bu tadqiqotlar ularning yutug'i edi. Fransuzcha FBlarni etimologik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida shunday holatlar ko'zga tashlanishi mumkinki, iboralar tarkibida ishtirok etgan leksik komponentlar o'zlarining ifodalayotgan sof ma'nolariga mos kelishi ham yoki mos kelmasligi ham mumkin. Masalan,

¹ Будагов

salbiy ma'nodagi *eshak, tulki, ilon, cho'chqa, maymun, bo'ri* kabi hayvon nomlari ishlatilgan frazeologik iboralar ifodalayotgan ma'no ham salbiy bo'lishi yoki aksincha, *bulbul, qo'y, ot* kabi ijobiy ma'noni ifodalovchi hayvon nomlari ishlatilgan frazeologik iboralar ifodalayotgan ma'no esa ijobiy bo'lishi mumkin. Biroq buning teskarisi ham bo'lishi mumkin.

Demain , on rase gratis !- ushbu ibora Fransiyada yolg'onchi , vadabozlarga nisbatdan ishlatiladi. Aslida bu iborani kelib chiqish tarixi yaqin o'tmishga borib taqaladi.

Kunlardan bir kun Fransiya ko'chalaridan birida yangi sartaroshxona ochiladi va uning kirish peshtoqida *Demain, on rase gratis* ya'ni ertaga sartaroshxona hizmatlari tekin buladi degan afisha chiqarilib quyiladi. Bu hiylani anglamagan mijozlarning keti uzilmay qoladi. Ular har kuni ertani kutishar lekin har doim bugun soch oldirishga to'g'ri kelardi. Shundan so'ng vadaboz, yolg'onchilarga qarata ushbu ibora is'temolga kirib keldi .

Misol uchun Fransiyada eng ko'p ishlatiladigan FBlardan biri bo'lgan "*Parler francais comme une vache espagnole*" iborasining kelib chiqish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak . Tarjimasi: fransuz tilida juda ham yomon gapirmoq. Tarix zarvaraqlarining xabar berishicha bu ibora ilk marotaba 1640 yilda keng tarqalgan . Ya'ni 373 yil oldin iste'molga kirib kelgan. Bu tarixiy iboralar guruhiga kiradi . Uning kelib chiqish tarixi Bask qabilasi bilan bog'liqdir. 17 asrlarda Basklar qabilasi bir jamoa bo'lib Ispanlar bilan chegaradosh qushni bo'lib yashashgan ekan. U yerda fransuz tilini o'rgatadigan faqatgina bitta maktab bo'lib u yerda fransuz tilini o'rgatuvchi yagona o'qituvchi bo'lgan ekan. O'sha davrda ispanlar chorvachilikda ilg'or bo'lishgan. Ular boqqan har bir sigir juda ham ko'p sut berar va har doim tinimsiz kavsh qaytarib turarkan. Maktabda ishlovchi fransuz tili o'qituvchisi fransuz tilini juda ham tez gapirar, uning gapini hech kim tushunmas va anglay olmas ekan. Chunki u tilni yaxshi bilmas, o'zini bilimdon ko'rsatish maqsadida nafas olmasdan tez gapirar edi. Uning gapirishini xuddi tinimsiz kavsh qaytaradigan sigirga qiyoslashardi. O'shandan boshlab fransuz tilini buzib, tushunarsiz gapiradiganlarga nisbatan ushbu ibora qo'llanilib kelinmoqda.

Quyidagi iboradan asarlarda va mutoyibalarda ham keng qo'llaniladi.

« *Jacques Collin parlait le francais comme une vache espagnol* » .

(Honore de Balzac-Splendeurs et miseres des courtisanes)

Bu haqda shunday kulgili xanda mavjud : *a l'issue de la finale de Roland-Garros de juin 1993 entre Jim Courier, Americain et Sergi Bruguera, espagnol ce dernier, vainqueur du match, baragouine quelques paroles dans un francais plus qu'approximatif, alors que Courier, dans un tres bon francais, s'est excuse de parler notre langue comme une vache espagnol, en regardant de facon appuyee son adversaire.*

« *Fin comme une dague de plomb* » - kaltafaxm, zehni past odam.

Bu iboraning kelib chiqish tarixi Rable ijodiga borib taqaladi. Rable o'zining « Gargantua va Pantegruel » asarida bosh qahramon hisoblangan Pantegruel tomonidan kesatq gaplarga aynan mana shu iborani ko'p marotaba ishlatgan. Hozirgi fransuz tilida ushbu iboraning ekvivalenti sifatida « *Fin comme du gros sel* » iborasi ishlatiladi. Ya'ni, kaltafaxm, gapga darrov tushunmaydigan insonlar uchun aynan mana shu ibora qo'llaniladi. Bu ibora ayni vaqtda tarixiy iboralar turiga mansubdir:

Il est fin comme une dague de plombe, se dit d'un homme qui, ayant l'esprit grossier, veut faire le fin.

« *C'est un coq de paroisse* – Qishloqning eng oldi yigiti ».

Bu ibora XVII asrda Fransiya qishloqlarining birida paydo bo'lgan. O'sha davrda qishloqning erkaklari, yigitlari oilasini boqish uchun pul ishlash maqsadida turli xil shaharlarga borib ishlab kelishar edi. Shu qishloqda bir boy zodagon yashar ekan. Uning yakkayu yagona o'gli bo'lib, u yalqovligi, beo'xshovligi bilan dong taratgan edi. Boy farzandini uylantirish maqsadida kelin axtarib ko'p joylarga boribdi. Sovchilikka borganda boy o'glini tarifini osmonlarga ko'tarar va ushbu iborani « *C'est un coq de paroisse* » tinimsiz takrorlagan ekan. Shu shu qizlar yigitni ko'rganda yuqoridagi iborani aytib axmoq qilishar ekan. Ushbu ibora hali-hanuz qo'lidan ish kelmaydigan maqtanchoq yigitlarga nisbatan qo'llanilib kelmoqda.

« *C'est (un) Saint-Jean Bouche d'or* –

Vaysaqi, safsataboz, nokamtar odam ».

Bu ibora juda ham qadimiy hisoblanib uning kelib chiqish tarixi IV asrga borib taqaladi. Saint-Jean Bouche provaslav cherkovining eng katta ruhoniysi bo'lib u ibodat qilishga kelgan odamlarga va`z o`qir edi. Uning va`zlari uzundan uzoq davom etar edi. Lekin gaplaridan ma`noni anglab olish juda qiyin edi. Bora-bora qishloq odamlari cherkovga yurak yutib borolmay qolishddi. Saint-Jean Boucheni ko`rgan yoshu qari undan xuddi zaharli ilonni ko`rganday qochib ketishardi. Shu shu Fransiyada safsataboz, vaysaqi odamlarga nisbatan « *c'est (un) Saint-Jean Bouche d'or* » yoki « *parler comme Saint-Jean Bouche d'or* » deyiladigan bo`ldi.

« *Rossignol (roussin) d'arcadie. Arkadiya bulbuli, eshak* ».

Bu ibora XIX asrning eng mashxur iboralaridan hisoblanib, uning rivojlanishi texnika asri bilan bo`g'liqdir. Arkadiyalik bo`lgan bir qator yoshlar musiqiy guruh tuzib shaharma shahar o`z istedodlarini namoyish qilib yurushar edi. Bir kuni ular navbatdagi ijodiy safar vaqtida jo`shib kuylayotgan edilar. Shu vaqtda qandaydir texnik nosozlik berdiyu to`satdan yigitlarning ovozi o`chib qoldi. Noiloj qolgan yigitlar sharmandalik holatdan chiqib ketish maqsadida o`zlari kuylay boshlashdi. Lekin ularning ovozlari xuddi eshak hangragandan battar darajada xunik edi. Shu sababli Arkadiya bulbuli guruhi tanazzulga uchrab tarqalib ketdi. Xalq ichida esa ovozi yo`q xonandalarga nisbatan shu ibora qo`llanila boshladi.

« *Ne pas en fiche une datte- tuprog'i yengil* »

Bu iboraning kelib chiqish tarixi muqaddas kitob bo`lgan "Injil" ga borib taqaladi. Keyinchalik ko'plab lug'atshunos olimlarning izlanishlari natijasida shakllangan. Avvalo olimlar « *la datte* » so'ziga e'tibor qaratishadi. Ushbu so'zning ma'nosi meva ya'ni hurmo mevasidir. Kitobda yozilishicha ushbu meva paydo bo'lgandan nechi yillar o'tsada hech meva solmasdi oradan ancha yillar o'tib dexqonlarning say harakatlari bilan hurmo daraxti meva soladi lekin u solgan meva juda ham yengil sal shamolga ham uchib ketardi. Shundan so'ng xalq ichida

muommalarga qarab vaziyatga qarab o'zgaradigan insonlarga qarata ushbu ibora qo'llaniladigan bo'ldi. Ushbu iboraning ma'nodoshi sifatida « *avoir les pieds nickelés* » qo'llaniladi.

« *Ne pas revenir comme le corbeau de l'Arche-dumini ham tutqizmaslik, qorasini ham ko'rsatmaslik* »

Bu iboraning kelib chiqish tarixi ham "Injil" kitobi bilan bog'liqdir. Ushbu kitobdagi rivoyatlarga ko'ra afsonaviy to'fonda Nuh, uning oilasi va hayvonlar saqlanib qolingan kemandi nomi "l'Arche de Noé" deb atalar ekan. Kunlardan bir kuni qattiq to'fon boshlanib yer yuzidagi mavjudotlarga zarar keltira boshlaydi. Usha vaqtlarda hattoki qushlar ham yer yuzida yashar ekan. Shunda Nuh payg'ambar jonivorlarga yordam berish maqsadida kema yasab jamiki jonivorlarni kemaga joylaydilar. Oradan ancha vaqt o'tib ularni yemaklari nihoyasiga yetib boshlaydi. Shu fursatdan unumli foydalangan mug'ombir qarg'a esa o'rtoqlarini ovqatlariga ko'z tika boshlaydi. U turli hil hiylalar qilib ko'proq ovqat yeyish payida bo'lar edi. Bora-bora uning bu shumliklarini bilib qolgan boshqa jonivorlar uni kemadan haydashni ovozga qo'ya boshlaydilar lekin ayyor qarg'a esa o'zini bechorahol ko'rsatib rahmni keltiruvchi bahonalar qilib kemada qolishni payida bo'ladi. Ertansi kuni esa kemadaga barcha ozuqani paqqos tushirib qochib qolibdi. Shundan beri qarg'a yer yuziga faqatgina qish mavsumida hayvonlar yuq vaqtda tushar ekan chunki biror jonivor undan o'ch olishi mumkin ekanda. Xalqda esa nonko'r odamlarga nisbattan aynan mana shu ibora keng qo'llaniladi.

« *Né dans la pourpre- podshohning merosxo'ri* »

Ushbu iboraning tarixi Yunon urf-odatlariga bilan bog'liqdir . Lug'atshunos olimlarning izlanish olib borishlaricha "*pourpre*" yani duhoba rang antik davrda yunon qirollarining kiyimini asosiy qismini tashkil etar edi. Ayniqsa molyuska surati tushirilgan duhoba rangli kiyimlar eng ko'rkam va qimmatbaho hisoblanardi. 19 asrning o'rtalariga kelib Fransiyada bu ibora qo'llanila boshlagan ayniqsa adabiyotlarda yozuvchilar keng doirada ishlatgan. Bu ibora tantiq , maqtanchoq yigitchalarga nisbattan kesatiq ma'nosida ishlatilgan . Hozirgi kunda ham ushbu

ibora mashxurdir. Uning ma'nodoshi sifatida “ *naitre dans la outre*” iborasi ishlatiladi. Bu ibora kundalik iboralar turiga kiradi.

« *Ne pas valoir un pet de lapin-bir chaqalik ham qadri yo'q* »

Ushbu ibora 19- asrda uslubchi olimlar tomonidan tilga kirib keldi. Ular metaforada *pet* so'zidan o'z qadrini yo'qotgan , bir chaqaga arzimaydigan odamlarga nisbatan ishlatishgan. Ular yanada bo'yoq berish maqsadida *lapin* ya'ni quyon obrazini ham qo'llashgan. Chunki quyon o'rmon hayvonlari ichida eng qo'rqqoq, o'z obro'sini to'kadigan hayvon hisoblangan shuning uchun ham aynan quyon obrazini tanlab olishgan. Xalq ichida qo'rqqoqligi, yolg'on gapirishi tufayli obro'-izzatini yo'qotgan odamlarga qarata ushbu ibora hanuz keng qo'llanilib kelinadi. Bu iboraning ma'nodoshi sifatida qo'yidagi iboralar ham qo'llaniladi.

« *Ne pas valoir tripette, ne pas valoir un clou* »

« *C'est un Roger bontemps-g'amsiz, betashvish* »

Bu ibora qadimgi ibora hisoblanib uning kelib chiqish tarixi XIV asrga borib taqaladi. Fransiya qishloqlarining birida asli kelib chiqishi zodagonlardan bo'lgan Roger ismli bir o'rta yoshlardagi odam ko'chib keldi. U ko'chib kelgan qishloq shoh zulmidan har kun aziyat chekardi. U yerda hech kim kulmas hamma g'amga botgan edi. Bu holatni ko'rgan Roger davlat odamlaridan o'ch olish maqsadida turli hil hiylalar o'ylab topa boshladi. Tabiatdan o'ta hazilkash bo'lgan Roger og'ir vaziyatlarga tushib qolganda ham kulgi bilan yengardi. U turli hil masxaromus so'zlari bilan davlat odamlarini haqoratlar bundan qishloq ahli ichagi uzilib kular edi. Bu qishloqda ham sekin – sekin quvnoqlik kirib kelgandi. Rogerning bu ishlari shohning qulog'iga chalinadi va uni jazolashga buyiradi. Roger esa hattoki o'limi oldida ham quvnoq tarzda vafot etadi. Shoh esa xalqiga hukumatning ustidan kulganning ahvoli shu buladi deb “*C'est un Roger Bontemps*” iborasini ishlatadi. Shundan keyin xalq ichida betashvish odamlarga nisbatan ushbu ibora qo'llanila boshladi. O'zbek tilida « *Dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am* » iborasi ham ushbu iboraga qisman to'g'ri keladi chunki bu ibora ham ijobiy ham salbiy tarzda tahlil qilinadi. Buning ikki hil tarjimasi

mavjuddir ya'ni g'amsiz odam ikkinchisi esa loqayd kishilarga nisbattan ham qo'llaniladi. Hozirgi kunda eng ommaviy iboralar qatoriga kiradi.

« *C'est un petit maître-olifta odam* »

Bu iboraning kelib chiqishi 1789-yillardagi revolyutsiya bilan bog'liqdir. O'sha yili Parijda asli Belgiyadan bo'lgan matematika o'qituvchisi paydo bo'ladi. Uning ko'rinishi juda badbashara lekin kiyinishi olifta po'rim edi. U hech kimni nazariga ilmas, manman o'ta zamonaviy edi. Shu yerda yashovchi aholi uni *C'est un petit maître* deb atashar edi. Muallim uchun bu huddi maqtovddek tuyilar aslida esa bu piching, kinoya tariqasida xalq tomonidan ishlatilgan edi. Shundan so'ng olifta, manman, ayolsifat erkaklarga kinoya tarzida ushbu ibora keng qo'llanila boshlagan.

Ushbu iboraning ma'nodoshi sifatida « *C'est un dandy* » iborasi ham ishlatiladi. Masalan : *Un petit – maître , avec ses grimaces est aussi loin caractère d'un galant homme, qu'un faux dévot , avec son air sanctifié , est éloigné du caractère d'un homme véritablement religieux.* (J.F. Féraud : Dictionnaire critique de la langue française).

« *C'est Byzance – bashang* »

Ushbu ibora XIX asrda is'temolga kirib kelgan bo'lib uning kelib chiqish tarixi Byzance shaharchasi bilan bog'liqdir. Bu shaharchani nomi uning yaratuvchisi bo'lgan Byzance nomi bilan atalgan. Uning ma'nosi mo'l-ko'lchilik, farovonlikdir. Trignol o'z asarlarida bosh qahramon sifatida Byzance obrazini tanlab oladi va u ushbu iborani argo sifatida adabiyotga tadbiq etadi. O'z davrida zamonasining old odamlaridan bo'lgan Byzance qiyofasini yozuvchi ironiya tariqasida ham ishlatadi. Misol:

Une robe longue, des bijoux comme s'il en pleuvait , du noir aux yeux , mais c'est Byzance . (G.Guéguan).

« *Charger la mule- lof urmoq* »

XVIII asrning boshlarida asosiy transport vositasi sifatida ot va eshaklardan foydalanishgan. Usha davrning mashxur qiziqchi rassomlari eshak va xachirlarning

ustiga tog'ni rasmini chizib mutoyiba qilib yurishgan. Shundan so'ng qo'shib lof bilan gapiruvchi insonlarga nisbattan *Charger la mule* iborasi keng qo'llaniladi.

« *Avoir la grosse tête-shuhratparast* »

Bizga ma'lumki Fransiya o'zining turli hil ball , maskaradlari bilan mashxurdir. *Avoir la grosse tête* iborasining kelib chiqishi ham bevosita maskarad bilan bog'liqdir. Bilamizki maskaradda har bir kishi niqob bilan ishtirok etishi shart va zarurdir. Shunga ko'ra bir zodagon boshqalarnikidan tubdan farq qiladigan niqob o'ylab topish maqsadida ancha kun harakat qilibdi va yuziga katta bosh surati tushirilgan niqob taqib maskaradga tashrif buyiribdi. Ammo zum o'tmay boshidagi niqobi og'irlik qila boshlabdi. Odamlar uning ustidan rosa kulishibdi. Shundan buyon shuhratparast, manman kishilarga nisbattan ushbu iborani qo'llashadi. Ushbu iboraning sinonimlari ham mavjuddir:

Avoir les chevilles qui enflent, être gonflé.

« *A l'eau de rose- soxta va sayoz hikoya* »

14-asrda shoir va yozuvchilar o'z asrlarida atirgul obrazini nihoyatda ko'p marotaba qo'llay boshlashdi va u bora-bora she'riyat nomoyondalarining badiga ura boshladi. Har bir yangi she'riy to'plammi yoki yangi asar chiqqanida odamlar bir-biri bilan fikr almashinar agar u eski siyqasi chiqqan atirgul mavzusida bo'lsa « *A l'eau de rose* » deb qo'yishar edi . Shundan buyon ezma, mijg'ov odamlarga nisbattan ushbu ibora qo'llaniladi.

Ko'pgina frazeologik birliklar atoqli otlar bilan bog'liqdir. Bunga misol tariqasida *Aller (courir, marcher, trotter) comme un Basque- tez yugurmoq*

Vivre autant que Mathusalem- uzoq umr ko'rish

C'est (un) Saint - Jean Bouche d'Or - vaysaqi, safsataboz, nokamtar odam

Bénédiction de Saint –Roch - la'natlash, nafratlanish

Yuqoridagi ba'zi atoqli nom bilan ifodalangan iboralarni ko'rib chiqqan edik. Endigi biz taxlil qiladigan iboralar hozirda deyarli qo'llanilmaydi. Ular tarixiy iboralar turiga kiradi. Misol tariqasida *Vivre autant que Mathusalem – uzoq umr ko'rish* iborasi hozirda deyarli og'zaki nutqda qo'llanilmaydi. Chunki u 14

asrda is'temolga kirib kelgan bo'lib hozirda uning faqatgina ma'nodoshi qo'llaniladi.

Ushbu iboraning kelib chiqish tarixi etimologiyasiga keladigan bo'lsak Mathusalem 14 asrda qishloq hokimlaridan biri bo'lib u 110 yoshida vafot etadi . Uning hokimlig faoliyati 85 yil davom etadi ya'ni u 25 yoshidan to vafot etganigacha hokimlik qiladi chunki u mansabni juda ham yaxshi ko'rar edi hattoki qarib qo'lidan hech ish kelmay qolsa ham mansabini hech kimga bermagan . Bu ibora 17 asrga qadar eng mashxur ibora hisoblangan .

Aller comme un Basque – tez yugurmoq

Ushbu ibora ham tarixiy iboralar turiga kiradi. Hozirda faqatgina yozma adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin . Basque tarixiy shaxs sifatida bizga tanish lekin qo'yidagi iborada uni tez yuguruvchi shaxs sifatida ta'riflagan. Aslida Basque hech qachon tez yugura olmagan uning yugurishini huddi toshbaqaga qiyoslashgan kinoya sifatida Aller comme un Basque iborasini ishlatishgan .

Til o'rganish - bu dunyoni tushunishning eng muhim yo'llaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan til orqali bir avloddan boshqa bir avlodga tarixiy va madaniy merosi orqali uzatiladi. Til o'rganishning yana bir muhim xususiyatlaridan bu- har bir xalq tilining tarkibiy qismlarining o'rganish orqali biz o'z fikrlarimizni yaxshiroq ifodalaymiz va shundagina xalqlar va millatlar o'rtasida yanada uyg'un va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda va odamlarni tushunishga ega bo'lamiz .

Biz ko'pincha til o'rganish jarayonida iboralarga duch kelamiz, lekin ularning tarixiy o'tmishi haqida hech o'ylamaganmiz. Balki u tarixiy arbobi nomi bilan bog'liq, yoki, ehtimol, bu joy nomidan tashkil etilgan, yoki u birovning laqabi ekanligi haqida hech qiziqib ko'rmaganmiz.

Ushbu qilinayotgan ishimizda biz fransuzcha frazeologik iboralarning qayerdan, qachon, kim tomonidan iste'molga kirib kelgani haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avvalo, fransuzcha frazeologik birliklar kelib chiqish tarixini bir nechta turga bo'lib olsak:

1. Joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar:
2. Adabiyot bilan bog'liq bo'lgan iboralar:
3. Madaniyat bilan bog'liq bo'lgan iboralar:
4. Kishi ismlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar:
5. Tarix bilan bog'liq bo'lgan iboralar:

Moskva Universiteti olimi Xayitov.B.T o'z tadqiqot ishlarida shunga amin bo'ldiki fransuzcha frazeologik birliklar lug'atida 300 dan ortiq ibora joy va kishi nomlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.Biz bunga ko'plab misollarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Ajax et Hector-Ayaks va Gektor

Alice au Pays des Merveilles-Alisya g'aroyibotlar mamlakatida.

Aller (venir) à Canossa- Kanossaga bormoq.

Alma Mater- Alma Mater

Anesse de Balaam- Balama eshagi.

Arbre de Jessé- Isus daraxti

Arche de Noé-Nuh kemasi

Barbier de Midas- qirol Medasning soqoli

Barque à Charon- Xarun ruhi

Beau comme le Cid-Sid kabi go'zal

La Belle Hélène-Go'zal Yelena

Boîte de Pandore- Pandor qutisi

Le Bon billet qu'a Le Châtel – quruq gap

Les Capulets et les Montaigus-Montekkilar va Kapulettilar

Châteaux en Espagne –havo qasri

Corsaire à Corsaire- qarg'a qarg'ani ko'zini cho'qimaydi.

Disciples d'Hippocrate- Gippokrat shogirdi

Dix plaies d'Egypte- balo, qazo

En robe d'Eve- Yevaning ko'yilagi

Bir qancha Jug'rofiya bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar etimologiyasiga nazar tashlasak.

1. *Perfide Albion* - bevafo Albion. Buyuk mashhur fransuz inqilobi davrida paydo bo'lgan Angliyaning masxaromuz nomi. Avgustin Ximena shunday yozgan edi: "*Biz bevafo Albion va uning suviga hujum qilgaymiz*", ushbu inqilob davrida she'riyat inqilobchilarning eng ko'p qo'llagan iboralaridan biri hisoblanadi. Albion - Britaniya qadimgi nomi bo'lib u kelt tilida "*tog'lar, mamlakat*" degan ma'noni anglatadi.

2. *Crétin des Alpes (du Valais)*-ahmoq degan ma'noni anglatadi. Ushbu iboradan XVIII-asrda tibbiyot sohasida keng qo'llanilgan.

3. *Faire tout â rebours comme les cordiliers d'Antibes*-barcha ishni teskarisini qilmoq (huddi rohib Antib kabi). Bu iboraning kelib chiqishiga sabab bo'lgan shaxs rohib Antibdir. U o'z rohibligi davrida to'y marosimlariga o'qiladigan vazlarni motam marosimiga, motam marosimiga o'qiladigan vazlarni aksincha to'y marosimlariga o'qir edi. Shundan buyon ishini teskari bajaradigan kishilarga nisbatan ushbu ibora qo'llaniladi.

4. *Voila le soleil d'Austerlitz!*- Mana Austerlitz quyoshi ! Bu ibora 1812- yil 7-noyabr kuni Napalyon tomonidan askarlar ruhini ko'tarish uchun aytilgan. U har tongda askarlariga jangovor ruhda ushbu iborani qayta-qayta takrorlar edi. Lekin ushbu urush davrida u mag'lubiyatga uchraydi.

5. *Forêt de Bondy*- havfli joy. Bondiy o'rmoni qadimda qatl joyi hisoblangan, barcha nohushliklar shu o'rmonda amalga oshgan. Xozirda bu iboradan so'zlashuv tilida keng qo'llaniladi.

2.2. Frazologik birliklarning ishlatilish doirasi.

Fransuz tili frazemalarining ishlatilishi doirasiga ko'ra chegralanmagan va chegaralangan bo'lishi mumkin.

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar millat vakillarining barchasi uchun umumiydir , ular barchaning nutqida bir xil darajada qo'llaniladi. Misol uchun:

Bonne continuation!- shunday ruhda davom eting!

On t'en fricasse!- bu sen uchun emas !

Invitation à la valse- yoqimsiz taklif

Je vous en fais mon compliment- nima munosabati bilan tabriklay sizni.

C'est la mer à boire- bu juda mushkul ish

Faire un beau gâchis de sa vie- o'z hayotini izdan chiqarish

Baiser les mains à qn- yo'q-yo'q , kaminangizga to'g'ri kelmaydi.

Il en a – qilmishiga yarasha jazo oldi.

Le beau malheur!- katta tashvish (g'am)

Belle question!- qanday savol bo'ldiya!

Une belle équipée- axmoqona ish, qiliq

Droit comme la jambe d'un chien-egri

2. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar, asosan, muayyan dialekt toki sheva birligi bo'lib , umumtil va adabiy til doiralarida qo'llanmaydi. Bu iboralar ma'lum bir doirada , kasb – hunarga taluqli bo'lishi mumkin. Bizga ma'lumki xar bir kasb egalarining faqatgina o'zlariga ma'lum bo'lgan iboralari bo'lib ushbu iboralar o'z doirasida ko'p qo'llaniladi. Misol uchun:

Vivre autant que Mathusalem- uzoq umr ko'rish

La maison du Roi- qamoqxona

Auteur par abc-o'qimagan nodon

Mon bon monsieur-oliyjanob, oliyhimmat davlat

Un bel oiseau-o'ta muhim qush

Boule de neige-negr, qora tanli

Invalide du pont des Arts- Fransuz akademiyasining a'zosi

Notre grand argentier- moliya vaziri

Mal choisi- akademik , olim

Faire du boudin-qon to'kmoq

C'est (un) Saint-Jean Bouche d'Or- vaysaqi,safsataboz

La galanterie est un peu forte- nopok ish

Voilà un beau chapeau qu'on lui a missur la tête-uni sharmandasi chiqdi.

Grand genre-kibor

Qo'yidagi biz keltirib o'tgan bir qancha iboralar ijtimoiy hayotda ishlatiladigan iboralardir.

Bundan tashqari, xar bir hunarga oid iboralar ham mavjuddir.

Etre mal fagoté- didsiz kiyinmoq

Etre bien fagoté- didli kiyinmoq

Droit comme une faucille- ilgakka o'xshab bukilgan

Petit crevé – o'ta zamonaviy

Ushbu iboralar tikuvchilik hunariga oiddir.

Ishlatilishi kasb – hunarga ko'ra chegaralanish aslida frazemalarga xos emas, ammo frazemalarning kelib chiqishi va shakllanishi ijtimoiy hayot va ijtimoiy mehnatning u yoki bu turi nolisoniy omil sifatida ishtirok etganligi shubhasiz: ko'pchilik frazemalar ijtimoiy mehnat bilan bog'liq voqeliklarga tayangan holda yuzaga kelgan.

2.3. Zamonaviylik belgisiga ko'ra frazeologik birliklarning turlari.

Yuqorida frazeologik birliklarni taxlil qilish mobaynida biz ularning qaysi asrda istemolga kirib kelgani haqida qisqacha bo'lsada ma'lumot berib o'tgan edik. Har bir frazeologik birlik o'z tarixiy davriga ega, shunga ko'ra frazeologik birliklar zamonaviylik belgisiga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Istorizm-frazemalar
2. Arxaizm – frazemalar
3. Neologizm-frazemalar

Istorizm-frzemalar o'tmish voqeligiga xos iboralardir bu turdagi iboralar juda qadimiy hisoblanib hozirgi kunda deyarli qo'llanilmaydi. Misol uchun:

Aller comme un Basque-tez yugurmoq

Partisan du moindre effort- tanbal

Vivre autant que Mathusalem- uzoq umr ko'rish

La maison du Roi- qamoqxona

Faire du boudin-qon to'kmoq

C'est (un) Saint-Jean Bouche d'Or

Yuqoridagi iboralar hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi ular tarixiy iboralar turiga kiradi.

Arxaizm – frazemalar- hozirgi tilda leksik yoki frazeologik sinonimi bor bo'lgan eskirgan frazemalar. Misol uchun:

Avoir la grosse tête –*shuxratparast* iborasi hozirgi tilda kam qo'llaniladi. Bu iboraning ma'nodoshi bo'lgan *Etre gonflé* iborasidan keng qo'llaniladi.

Ne pas en fiche une datte-tuprog'i yengil iborasining paydo bo'lganiga ham bir necha asr bo'ldi. Hozirda bu ibora deyrli qo'llanilmydi uning o'rnini *Avoir les pieds nickelés* iborasi qo'llaniadi.

C'est Byzance-bashang iborasining kelib chiqish tarixi 15 asrga borib taqaladi . 6 asrlik tarixga ega bu ibora hozirda deyarli qo'llanilmaydi. Zamonaviy tilda uning ma'nodoshi *C'est eldorado* ishlatiladi.

Né dans la pourpre merosxo'r iborasi qadimda podshohlik davrida qo'llanilgan bo'lib hozirda bu ibora faqatgina yozma adabiyotlardagina ko'rishimiz mumkin. Uning o'rnini *Avoir le sang bleu* yoki *naitre dans la ouate* iboralari egallagan.

Neologizm – frazemalar- yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan iboralar ya'ni hozirgi zamonaviy tilda keng qo'llaniladigan iboralardir. Misol uchun:

Parler le francais comme une vache espagnole- *fransuz tilida yomon gapirmoq*

Nous voilà bien logés!- *ja yaxshigina axvolda edikda*

Vilain merle- *jirkanch nusxa*

On t'en fricasse!- *bu sen uchun emas!*

C'est un beau monsieur!- *tuzukkina yigitcha*

Demain, on rase gratis- *vadaboz*

Un joli mignon- *xo'p odam ekanda, odam ham shunaqa bo'ladimi*

Aller ad patres- *unisi dunyoga ravona bo'lmoq*

Gai comme un de profundis- *o'lganini kunidan xursand*

Un joli monsieur- *chiqisha olmaydigan odam, sho'rtumshuqlik*

C'est la mer à boire – *bu juda mushkul ish*

Belle question !- qanday savol bo'ldiya!
Gras comme un cent de clous- cho'pday ozg'in
Une belle équipée- ahmoqona ish, qiliq
Fin comme une dague de plomb- kaltafaxm, zehni past odam
Quel dégourdi!- voy lapashang , beso'naqay
Langue dorée- so'zamol, gapga chechan

2.4. Fransuzcha frazeologik birliklarning tarjima­dagi talqini.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng chet tillarni o'rganish jadal tus oldi, chunki chet ellar bilan madaniy aloqalar, xalqaro hamkorliklar bevosita olib borilmoqda hozirgi kunda xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalar , xalqaro hamkorliklar bevosita olib borilmoqda hozirgi kunda xorijiy davlatlar bilan vositachi tillardan ko'ra o'sha davlatning o'z tilida ish bitirish ham qulay , ham samarali bo'lib bormoqda. Shuning uchun hurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan chet tillarni o'rganish uchun juda ko'p dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda . Mamlakatimizda turli jamg'armalar tashkil qilinmoqda.

O'zbekistonni dunyoga tanitishda, albatta, xorijiy tillarni bilish alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda chet el madaniyati, adabiyoti, san'atini o'rganishimizda tarjimon yozuvchilarimizning o'rni beqiyosdir.

Badiiy matn tarjimasida kuzatilgan asosiy muammolardan biri frazeologizmlar tarjimasidir. Ushbu holdan kelib chiqib , frazeologik birlashma va uning tarjima­dagi ifodasini o'rganish tarjimon oldidagi muammolarni biroz bo'lsa-da , yengillashtiradi.

Ayrim hollarda esa iboralar tarkibidagi salbiy ma'noli hayvon nomi o'z xususiyatiga mos tarzda salbiy xarakterli frazeologik iboralar hisoblanishi ham mumkin.

Fikrimiz dalili sifatida bir nechta misollarni keltirib o'tsak. Hozirda zamonaviy fransuz tilida hazil tariqasida qo'llanib kelinadigan “*Payer en monnaie de singe*” ya'ni “*firib bermoq, pand bermoq* “ degan ma'nolarni

anglatadi. Agar ushbu iborani so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak "Maymunning tangasidan to'lamoq" degan ma'noni beradi. Shuning uchun fransuz tilshunoslari asosiy e'tiborni tarjimadagi ma'no butunligiga qaratishadi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, iboralar tarkibidagi komponentlarning ma'nolari frazeologik ma'nolarga nisbatan mutanosib yoki nomutanosib bo'lishi mumkin. Ushbu holat yuqorida ijobiy va salbiy ma'nodagi hayvon nomlari misolida o'z isbotini topdi. Ularning ikkala ma'no, ya'ni komponent ma'nosi va frazeologik ma'no o'rtasidagi mutanosiblik yoki nomutanosiblik holatini aniqlashga bizga, albatta ularning kelib chiqish tarixi katta yordam beradi. Binobarin, etimologiya va semasiologiyaning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi shu kabi g'ollarda namoyon bo'ladi. Frazemalar tarjimasini o'rganar ekanmiz, ularni o'rganish ob'ekti sifatida uch qismga bo'lib olishimiz mumkin.

1. Chet tilidan o'zbek tiliga aynan so'zma-so'z mos keladigan frazemalar: misol uchun:

Faire de l'harmonie-tovlamachilik qilmoq

Langue dorée- so'zamol, gapga chechan

Vilain merle-jirkanch nusxa

Faire du boudin-qon to'kmoq

Gai comme un de profundis-o'lganini kunidan xursand

Amusant (gai) comme un croque-tobutsozdek xursand

Ne se tromper qu'à son profit- o'zini xisobiga xato qilmoq

2. Chet tilidan o'zbek tiliga shakl jihatdan emas, balki ma'no jihatdan mos keladiganlari.

Coq de paroisse-qishloqning old yigiti

Droit comme la jambe d'un chien- egri

Le beau malheur!- katta tashvish!

Baiser les mains à qn- yo'q-yo'q, kaminangizga to'g'ri kelmaydi

Je vous en fais mon compliment-nima munosabati bilan tabriklay sizni

*L'eau est entrée dans ses souliers par le collet de son pourpoint-
botqoqqa botmoq*

*Voilà un beau chapeau qu'on lui a missur la tête- sharmandasi chiqdi
Beau coup-axmoqlik*

Épouser une dot – pul uchun uylanmoq

C'est le contraire d'un honnête homme- ablax, razil, yaramas odam

3. O'zbek tiliga chet tilidan umuman mos kelmaydigan frazeologik iboralar.

Fransuz va o'zbek tillari misolida.

Bénédicton de Saint-Roch-nafratlash

*Parler le français comme une vache espagnole-fransuz tilida yomon
gapirmoq*

C'est (un) Saint-Jean Bouche d'Or- vaysaqi , safsataboz

Vivre autant que Mathusalem-uzoq umr ko'rish

Nous voilà bien logés!- ja yaxshigina axvolda edikda!

On t'en fricasse- bu sen uchun emas!

Demain , on rase gratis- vadaboz

Un joli mignon- xo'p odam ekanda! Odam xam shunaqa bo'ladimi!

C'est la mer à boire – bu juda mushkul ish

Mal choisi- akademik olim

Bonne continuation!- shunday ruxda davom eting

Etre mal fagoté-didsiz kiyingan

Cela lui fait une belle jambe- yaxshigina , mumaygina ish

Une belle équipée-ahmoqona ish, qiliq

Fin comme une dague de plomb- kaltafahm, zehni past odam

Petit crevé-o'ta zamonaviy

Invalide du pont des Arts- fransuz akademiyasining a'zosi

La maison du Roi-qamoqxona

La galanterie est un peu forte-nopok ish

Notre grand argentier-moliya vaziri

Auteur par abc- o'qimagan nodon

Mon bon monsieur-oliyjanob , oliyximmat davlat

Boule de neige- negr, qora tanli

Frazeologik iboralarni tasnifidan kelib chiqqan holda frazeologik birlashmalarni badiiy matndagi tarjimasiga to'xtalsak. Frazeologik birlashma frazeologik iboralar ichida hajm jihatdan katta, xilma-xil xususiyatlarga ega bo'lgan barqaror so'zlar bog'lanmasidir.

Fransuz tili dunyoda ommaviyligi bilan asosiy o'rinlardan birini egallab kelmoqda, hamda chet tili sifatida o'rganilish darajasi bo'yicha 2-o'rinni egallaydi. Ko'pgina olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda 200 milliondan ortiq kishi shu tilda gapiradi. Fransuz tili Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 6 ta rasmiy tillaridan biri sanaladi. Bu tildan psixologiya, falsafa, huquq, tibbiyot sohalaridagi xalqaro ilmiy konferensiya va simpoziumlarda foydalaniladi. Badiiy matn tarjimasida kuzatilgan asosiy muammolardan biri frazeologizmlar tarjimasidir . Ushbu holdan kelib chiqib frazeologik birlashma va uning tarjimadagi ifodasini urganish tarjimon oldidagi muammolarni biroz bulsada yengillashtiradi. Frazeologik birliklarning tarjimasi bilan bir qatorda ularning kelib chiqish tarixi ham juda qiziqdir.

Etimologiya aslida grekcha *''etumologia''* , *''asl ma'no''* so'zidan kelib chiqqan. Etimologiya har bir so'zning kelib chiqish tarixini evolyutsiyasini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limidir. Etimologiyada so'zlarning kelib chiqishi aniqlanadi, frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un konstruksiyalar frazemalar xususida bahs yuritiladi.

Har bir so'z, frazeologik birliklar ham o'zining kelib chiqish tarixi etimologiyasiga egadir. Ma'lum bir davrda , maskanda paydo bo'lgan frazeologik birliklar hozirda turli adabiyotlarda , so'zlashuv tilida keng qo'llaniladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bu bo'limda biz fransuzcha frazeologik birliklarni ishlatilish doirasiga ko'ra 2 turga ajratib o'rgandik.

1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan frazemalar.
2. Ishlatilish doirasi chegaralangan frazemalar

Fransuzcha frazeologik iboralarni ijtimoiy, kasb – hunarga ko'ra kelib chiqish tarixini ham o'rganib chiqdik.

Fransuzcha frazeologik birliklarni zamonaviylik belgisiga ko'ra 3 turga bo'lib o'rgandik. Ya'ni:

1. Istorizm – frazemalar
2. Arxaizm – frazemalar
3. Neologizm - frazemalar

Bunga ko'ra ularning hozirgi zamonaviy tilda ishlatilish sathlari o'rganilib chiqildi. Bundan tashqari, bu bo'limimizda biz fransuzcha frazeologik birliklarning badiiy asarlarda tarjimasiga doir ishlarni ham olib bordik bu tadqiqotimizni o'zbek va fransuz tili misolida qiyoslab o'rgandik. Frazeologik iboralarning tarjima qilish jarayonida ularni 3 tasnifga bo'ldik. Bular :

1. Chet tilidan o'zbek tiliga aynan so'zma-so'z mos keladigan frazeologik birliklar.
2. Chet tilidan o'zbek tiliga shakl jihatdan emas, balki ma'no jihatdan mos keladigan frazeologik birliklar.
3. O'zbek tiliga chet tilidan umuman mos kelmaydigan frazeologik birliklar.

Tadqiqotlar natijasida shunga to'xtalib o'tdik, frazeologik birlashma frazeologik iboralar ichida hajm jihatdan katta xilma-xil xususiyatlarga ega bo'lgan barqaror so'zlar bog'lanmasidir. Tadqiq qilinayotgan bunday frazeologik birikmalar o'zlarida mustaqil va yordamchi so'zlar birikishining maxsus turini aks ettiradi. Bunda yordamchi va mustaqil so'zlardagi xususiy ma'nolarning u yoki bu darajadagi ma'no ko'chishi iboraga butun yangi ma'no baxsh etadi. Aynan bunday so'z birikmalari ma'nosining o'zgarishi semantik jihatdan yaxlit frazeologik birikmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Birikmalar tarkibi leksemalarning aniq

uyg'unlashuvi bilan mustahkamlanganligiga qaramasdan, ulardan anglashilayotgan umumiy ma'no frazeologik birikmalar tarkibini tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqmaydi.

Ma'lumki, frazeologik birikmalardagi asosiy ma'no erkin so'z birikmalari tarkibidagi komponentlarga xos ma'nolarning turli xil tarzda ko'chishi asosida yasaladi. Bundan kelib chiqqan holda shunday taxmin qilish mumkinki, ma'lum bir sifat erkin so'z birikmalar tarkibiga kirgan holda ot va predlog bilan birgalikda yagona bir tushunchani ifoda etadi. Ma'noning metaforik tarzda o'zgarishi jarayonida ham ular yagona tushunchani ifodalaydi, lekin mavhumlikning ancha yuqori darajasi bilan farq qiladi. Yuqorida ko'rsatilgan sifatlar harakat darajasi vazifasidagi frazeologik birikmalar tarkibining juda ko'p qo'llaniladigan elementi bo'lib, ular belgining sifat va miqdor ifodasini aniq namoyon eta oladi.

Frazeologik birikmalar frazeologik birikmalarning tarkibiy komponentlariga tegishli bo'lgan arxaik hodisa hisoblanadi, ya'ni ular hozirgi zamon fransuz tilining grammatik normalariga mos kelmaydi. Chunki birikma tarkibidagi otlarning predlogdan so'ng artiklsiz holda qo'llanilishi grammatik arxaizmning mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa komponentlarning semantik jihatdan ancha mustahkam ekanligini ta'minlaydi. Bir qator tadqiqotchilar artiklsiz qurilmalarda semantik birliklarning o'zaro mavjudligini ko'rsatib o'tgan.¹ Biroq, frazeologik birikmalarda artikllarning tushib qolish hodisasi hanuzgacha o'zining aniqlanmishni topa olgani yo'q. Xususan, R.Gurmon ba'zi bir iboralardagi otlarning artiklsiz holda ishlatilishini shunday ta'riflaydi: «*Ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar faqat etimologik nuqtai nazardan ot hisoblanadi, shunga ko'ra ushbu iboralarda otlar mustaqil ma'nolarini yo'qotadilar*».²

Shuningdek, bunday frazeologik birikmalar tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlar o'rtasidagi aloqa xuddi bir-biri bilan uyg'unlashmagandek ko'rinadi yoki V.V.Vinogradov atamasi bilan aytganda, bunday holat «so'zlardagi

¹ Левит З.Н. К проблеме изучения компонентов фразеологических единиц (на материале французского языка) // Филологические науки. -М., 1965.-№2.-С. 78-88.

² Назарян А.Г., Арутюнова Ж.М. Практическое пособие по фразеологии французского языка. — М. Университет Дружбы Народов, 1975.-194 с.

qadimgi tilga mansub munosabatlarning qayta ishlangan holdagi etimologik jihatdan aks etishi» dir.¹

Frazeologik birikmalarning yasash jarayonida *en, de* predloglaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu mulohaza Z.N.Levit tomonidan o'tkazilgan hozirgi fransuz tilidagi frazeologik birikma tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi turli xil so'zlarning qo'llanilish darajasini tahlil qilish orqali o'z isbotini topgan. Muallif, xususan predloglarning qo'llanilishi yuzasidan quyidagicha natijaga erishadi: a)226; de)125; en)220. Bu 754 qo'llanishdan 652 tasini, ya'ni predloglar qo'llanilishining 80 foizini tashkil etadi.

M.S.Guricheva ham *a* predlogini qo'llash darajasining nihoyatda keng ekanligini uqtirib o'tadi: «Fransuz tilidagi *a* va *de* predloglari qadimdan keng tarqalgan bo'lib, ko'plab sintaktik munosabatlarni ifodalovchi predloglar hisoblanadi».²

Fe'l frazeologik birikmalarining tarkibiy komponentlari bo'lmish ot va sifat so'z turkumlarining qo'llanilishi xususida to'xtalsak, ot so'z turkumiga xos so'zlar xuddi erkin so'z birikmalardagi kabi o'z aniqlovchilari, ya'ni sifatlardan oldin yoki keyin kelishlari mumkin. Faqat shuni ta'kidlash joizki, tadqiq qilinayotgan frazeologik birikmalar tarkibida sifatlarning otlardan oldin kelish holati berilgan belgi darajasining yuqori darajasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *freiner a pleins muscles, hurler a plein gosier, pleurer a gros sanglots, filez d toute allure, fuir au grand galop, rire a gorge deployee, puiser a pleines mains*.

Yuqorida ko'rib chiqilgan turdagi frazeologik birikmalar semantikasining o'ziga xosligi shundaki, aniqlovchilar frazeologik birikmalarning asosiy ma'nolarini belgilovchi asosiy semantik markaz hisoblanadi. Boshqa so'zlar, jumladan otlar sifatlarning kategorial belgilarini namoyon qiladi. Sifatlar esa o'z navbatida otlarga qo'shimcha leksik ma'lumot baxsh etadi, ya'ni harakat darajasini ifodalaydigan frazeologik birikmalarning u yoki bu global ma'nolarini yasashdagi hal qiluvchi element sifatida gavdalanadi.

¹ Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. -М.:ВШ, 1987.-288 с.

² Степанов Ю. Французская стилистика. - М.: ВШ, 1965. - 365 с.

Tadqiq qilinayotgan bunday frazeologik birikmalar o'zlarida mustaqil va yordamchi so'zlar birikishining maxsus turini aks ettiradi. Bunda yordamchi va mustaqil so'zlardagi xususiy ma'nolarning u yoki bu darajadagi ma'no ko'chishi iboraga butun yangi ma'no baxsh etadi. Aynan bunday so'z birikmalari ma'nosining o'zgarishi semantik jihatdan yaxlit frazeologik birikmalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Birikmalar tarkibi leksemalarning aniq uyg'unlashuvi bilan mustahkamlanganligiga qaramasdan, ulardan anglashilayotgan umumiy ma'no frazeologik birikmalar tarkibini tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqmaydi.

Ma'lumki, frazeologik birikmalardagi asosiy ma'no erkin so'z birikmalari tarkibidagi komponentlarga xos ma'nolarning turli xil tarzda ko'chishi asosida yasaladi. Bundan kelib chiqqan holda shunday taxmin qilish mumkinki, ma'lum bir sifat erkin so'z birikmalar tarkibiga kirgan holda ot va predlog bilan birgalikda yagona bir tushunchani ifoda etadi. Ma'noning metaforik tarzda o'zgarishi jarayonida ham ular yagona tushunchani ifodalaydi, lekin mavhumlikning ancha yuqori darajasi bilan farq qiladi. Yuqorida ko'rsatilgan sifatlar harakat darajasi vazifasidagi frazeologik birikmalar tarkibining juda ko'p qo'llaniladigan elementi bo'lib, ular belgining sifat va miqdor ifodasini aniq namoyon eta oladi.

Uchinchi bob.

FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

3.1. Fransuz frazeologizmlarining vazifalari

Ranglar inson hayotida katta ahamiyatga ega. Rang-baranglik esa shu hayotning mazmunini namoyon etadi.

Shu kabi rang-baranglikni tilimiz bilan bog'lasak, frazeologik birliklar, frazemalar, iboralar va maqollar tilimizni mazmunli va ta'sirchanligini oshiradi. Bunday birliklarni nutqda qo'llanilishi so'zlovchining intellektual salohiyatini ko'rsatib berish imkoniyatiga ega. Shu sababli frazeologik birliklarning til sistemasidagi funksiyalarini alohida ta'kidlash joiz.

“Funksiya “ tushunchasini umuman tahlil qilganimizda, u til birliklari va ular asosida tuzilgan nutqiy birliklarning nutqda bajaradigan vazifasi ekanligi guvohi bo'lamiz. Masalan, so'zlar tildagi eng asosiy nominativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Ular borliqdagi narsa-predmetlarni, harakat –holatlarni ifodalab kelish xususiyatiga egadirlar. FBlar haqida to'xtaladigan bo'lsak akademik A.V. Kunin FBlar funksiyalarini tahlil qilganda, ularni eng avvalo ikki turga ajratish lozimligini qayd etib o'tgan:

- 1) Muqim funksiyalar(barcha FBlar uchun xarakterli bo'lgan funksiyalar)
- 2) O'zgaruvchan funksiyalar(ba'zi FBlar uchun xos)

Barcha FBlar uchun nominativ, kommunikativ va kognitiv funksiyalar xarakterlidir. FBlarning kommunikativlik funksiyasi uning nutq jarayonida ma'lum bir fikr ifodalash uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Albatta FBlardan nutq momentida ma'lum bir ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Nominativ funksiya FBlarning moddiy dunyodagi ma'lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo'ladi. FBlarning nominativ funksiyasi tilning leksik qatlamidagi bo'shliqlarni to'ldirib kelishi bilan xarakterlanadi va ikki turga bo'linadi: neytral nominal va nominal .

Neytral-nominativ funksiya asosan frazeologik butunlik uchun xos bo'lib, undagi asosiy vazifa ma'lum bir obyekt yoki predmetni nomlash, uning stilistik xususiyatlarini ochib berish emas.

FBlarning nominativ funksiyasi semantik jihatdan to'la ko'chma ma'noga asoslanuvchi frazeologik chatishmalar uchun ham xos. Faqat modal va undov FBlargina nominativ funksiyaga ega emas.

Nominativ funksiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiya bu kognitiv funksiya hisoblanadi. Chunki borliqdagi narsa-predmetlarni jamiyatda tushunganimizdek aks ettiramiz. Ular ongimizda o'z inikosini topadi. FBlar ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki FBlar ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir shaxslar tomonidan kashf etiladi va mana shu jamiyatda kommunikativ vosita sifatida foydalaniladi. Kondakov kognitivlikga quyidagicha ta'rif bergan: "Bilish jarayoni xayol surish, intuitsiya, oldindan ko'ra bilish, tasavvur va boshqa fikrlashga oid holatlarni ham o'zida mujassamlashtiradi".

FBlarning nominativ va kognitiv funksiyasi kommunikativ funksiya bilan bevosita aloqador. Yuqoridagi funksiyalar kommunikativ funksiyaga bog'liq ravishda paydo bo'ladi hamda rivojlanadi. Shu asosda frazeologik tizimdagi iearxik munosabat shakllanadi.

FBlar uchun xos bo'lgan semantik funksiyaga volyuntativ (lot. voluntas-istak) deyktik, rezultativ va boshqa funksiyalar bevosita tegishli.

Volyuntativ funksiya-bu xohish, istak bildirish funksiyasidir. Bu funksiya ba'zi FBlar uchun xarakterlidir. Masalan: *souhaite (la) bonne chance à qn - omd baxt tilamoq; ne souhaite que plaie et bosse- har doim urushga imkon izlamoq;*

Je vous en souhaite- tabriklayman sizni!

FBlarning deyktik funksiyasi haqida gapirishdan oldin deyksis haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Deyksis- so'zi yunoncha "ko'rsatish", "ishora" ma'nolarini anglatib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida voqelikka ishora, ko'rsatish mazmunini beradi. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni deyktik ibora deb atashadi. Bu

iboralarga nisbattan ayrim tilshunoslar “indeksikallar”(indexical) atamasini qo‘llaydi.

Hozirgi kunda shaxs, zamon, makon deyxsislari farqlanib kelinmoqda. FBlar ayrim hollarda deytik vosita vazifasini bajarib kelishi ham mumkin.

Makon deyxsis ma’lum bir joy yoki harakat yo‘nalishini ko‘rsatib berish uchun xizmat qiladi. Aynan bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi iboralar ham bu vazifani bajarib kelishi mumkin.

Zamon deyxsisiga ma’lum bir vaqt bilan bog‘lik holatlarni ifodalovchi FBlarni misol keltirishimiz mumkin:

Ba’zi FBlar uchun **rezultativ funksiya** ham xos bo‘lib, u FB ifodalab kelayotgan harakat yoki holatning sababini ko‘rsatib berishidir.

Tildagi barcha birliklar, jumladan FBlar uchun xos bo‘lgan eng muhim funksiya bu **pragmatik funksiya** hisoblanadi. Pragmatik maqsadga yo‘naltirilgalik FBlar uchun xarakterli jihatlardan biridir.

Stilistik funksiya- FBlarning aksariyati uchun xarakterli jihat hisoblanadi. Chunki FBlarda denotativ ma’no bilan bir qatorda konotativ element ham ishtirok etgan bo‘ladi. Bu esa nutq momentida FBlarning o‘ziga xos stilistik vazifani ifodalab kelishini ko‘rsatadi.

FBlarning uslubiy funksiyalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari tabiiy bo‘lib, FBning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual xarakterga ega bo‘lib, u yoki bu so‘z san’atkorining estetik mahorati, xohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi novatorligi bilan aloqadordir, shulardan birinchisini FBlarning lisoniy, uzual uslubiy funksiyalari deb, keyingilarini esa nutqiy okkazional uslubiy funksiyalari deb nomlash mumkin.

FBlarning uzual uslubiy funksiyalari FBlar uchun umumiy, doimiy bo‘lib, har qanday matnda reallashadi va ular FBlarning o‘ziga xos kategorial xususiyatlari bilan aloqadordir.

Rus tilshunosi S.G. Gavrin rus tilida FBlarni tahlil qilganda, ularning bir necha funksiyalari mavjudligini ko‘rsatib bergan¹.

¹ Гаврин

1) **Nutqni ixchamlashtirish funksiyasi.** FBlar ayniqsa gap shakliga ega bo'lgan FBlar nutqni ixchamlashtirish xususiyatiga ega.

2) **Obrazli ifodalash funksiyasi.** Ko'pgina FBlar konkret, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs predmet, voqea hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Masalan, bunday FBlar badiiy va publisistik nutqda metaforalar, o'xshatishlar bilan bir qatorda obrazlilik hosil qilishga bo'ysundiriladi. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki ta'sirchan shaklga obrazli tasavvurga ega bo'lgan FBlar uchun ko'proq xarakterlidir. Ba'zan FBlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan butun matnga kuchli obrazlilik "radiatsiya" baxsh etadi.

3) **Baholash funksiyasi.** FBlarning turli strukturali tillari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham xarakterlidir. Ba'zi hollarda FBlarning baholash funksiyasi undagi nominativ funktsiyani keyingi planga o'tkazsa, ba'zan esa FBlarda nominativ ma'no ustunlik qiladi. FBlarni ekspressiv-baho bo'yog'i tarkibini baholash, emotsionallik va ekspressivlik tashkil etadi. Baholash deganda predmet yoki shaxsga nisbattan salbiy yoki ijobiy tavsif berish tushuniladi. FB ma'nosini talqin qilganda baholash xususiyati albatta ishtirok etadi. Agar FBlarning semantik strukturasida baholash semasi bo'lsa, o'sha iboraning struktur-grammatik qurilishidan qat'iy nazar FB ga izoh sifat orqali beriladi yoki bu izoh tarkibida "*nihoyatda*", "*juda*" singari baho semasini ifodalovchi so'zlar qo'llaniladi.

FBlarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbattan sub'yektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. FBlarning emotsionalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi. Darhaqiqat, FBlar qo'rquv, shodlik, azoblanish, hayrat taajub kabi emotsional xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. FBlar uchun xarakterli funksiyalardan bo'lgan stilistik funksiya tarkibiga giperbolizatsiya hamda intensivlik funksiyasi ham kiradi.

4) **Ekspressiv funksiya.** "Ekspressiya" so'zi lotincha bo'lib, nutqning ta'sirchanlik faoliyatini ifodalaydi, bu xususiyat leksik, grammatik, va boshqa

vositalar yordamida yuzaga keladi. Masalan, FB tarkibidagi fonetik, leksik, grammatik o'zgarishlar ekspressivlik darajasini kuchayishiga olib keladi

Yuqorida keltirilgan barcha funksiyalarni FBlar nutq momentida bir vaqtning o'zida namoyon eta olmaydi. Ba'zi jihatlar doimiy, konstant vazifalar bo'lsa, ba'zilari faqat ma'lum bir FBlar uchun xosdir.

Tilning frazeologik fondida alohida o'rin tutadigan, maqol va matallar uchun **kumulyativ** funksiya xosdir. Chunki ayanan maqollar xalq tarbiyasi umumlashmasi bo'lib, kishilarni to'g'ri yo'lga, yaxshilikka yetaklaydi.

Kumulyativ funksiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiya bu **direktiv** funksiya hisoblanadi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek FBlar uchun pragmatik funksiya xarakterli jihatlardan biridir. Pragmatik funksiyaning ajralmas qismi sifatida baholash funksiyasi hamda **fikrni dalillash funksiyasini** aytib o'tishimiz mumkin.

Undov so'zlar bilan ifodalangan FBlar insonning ruhiy-emotsional holatini ifodalab kelgani uchun kompensatorlik funksiyasini bajaradi. Zero, nutq momentida bunday FBlarning qo'llanilishi, insoning emotsional holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Yuqorida tahlil qilgan barcha funksiyalar uzual xarakterli hisoblanadi. Ammo FBlar matn tarkibida qo'llanilganda uzual funksiyalar asosida okkazional funksiya ham bajarishi mumkin, ma'noni kuchaytirish funksiyasi, qo'shimcha ma'no berish funksiyasi kabilar.

Ma'lum bir frazeologik birlik nutq momentida qo'llanilganda bir vaqtning o'zida turlicha funksiyalar bajara olishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, frazeologizmlar nutqda qo'llanilganda bir vaqtning o'zida turlicha funksiya bajarib, nutqni ta'sirchan, jonli hamda rang-barang bo'lishini ta'minlaydi.

3.2. Fransuz tilida FBlarning ma'no munosabatlari:

ko'p ma'nolilik va omonimiya.

Til sistemasida shakl va ma'no munosabati mavjud bo'lib, shakl deganda tilning materiyasi-tovush tizimi, ma'no deganda uning ichki ifodalanuvchi jihati

nazarda tutiladi. Buyuk tilshunos Ferdinand de Sossyur tildagi bu ikki munosabat o'zaro bir-birini taqozo etishini ta'kidlab, til birliklari ifodalovchi va ifodalanuvchi birliklar yig'indisidan tashkil topadi deb ta'kidlab o'tgan. Til birligi bo'lish uchun ma'lum bir shaklga ma'lum bir ma'no biriktirilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligining mazmun plani deb ham yuritiladi.

Bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi iboralar ham ifoda plani va mazmun planiga ega bo'lgan til birliklaridir. Ma'lumki FBlar yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita ma'noviy til birliklari qo'shilishidan yasalgan bo'ladi. Shunga ko'ra FBlarning ifoda plani deb uni tashkil qiluvchi leksik birliklar nazarda tutiladi. Leksemanig ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavidalanadi. Qismlar ma'nosi asosida butun tushuniladi. Ammo FBlarda ma'no uning tarkibidagi leksik birliklar ma'nolari yig'indisi bo'lmay, ularning ko'chma yoki ustama ma'nolari asosida aks ettiriladi. Xususiyl (qismlarga xos) ma'nolarni umumiy ma'nolarni to'g'ridan to'g'ri izohlamasligi FBlarda ifoda va mazmun plani orasida bog'lanish shartli ravishda ekanini ko'rsatadi. Bunda bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida, ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan: *bon chat* – erkin birikma sifatida itoatkor yuvvosh uy mushugi ma'nosida qo'llanilsa, FB sifatida lattachaynar, sust tabiatli insonni ifodalab ko'rsatishi mumkin. Birinchi misolimizda birikma ma'nosi, leksik komponentlarning atash ma'nosi yig'indisi sifatida ifodalanayotgan bo'lsa, ikkinchi iborada obrazli ustama ma'no yetakchilik qilmoqda.

Istalgan til birligi va FB ma'nosini tasvirlashda, lug'at tuzuvchilar avvalo, til birligi ma'nosining lug'aviyl izohlanishi asosi bo'lgan ko'plab alohida kontekstual qo'llanilishning murakkab tahliliga qo'l uradilar. Bitta til birligining ma'nosini izohlashda turli leksikograflar har safar muayyan ma'no belgilarining umumiy ya'ni konstant to'plamini ajratadilar. Bu umumiy yoki konstant to'plam muayyan til birligi uchun asosiy, bir-biriga bog'liq ma'no belgilari (yoki alohida ma'no belgilari) to'plami ajratiladi. Bu to'plam boshqa leksikografik manbalardagi

analogik to‘plamdan farqlanadi. Bunday variatsiyali to‘plam tez-tez (ammo har doim emas) ma’nosi jihatdan ikkinchi darajali ma’no belgilarini o‘z ichiga oladi.

Boshqacha aytganda, til birligining bir talay aniq ma’nolariga tayangan holda turli leksikograflar har gal odatdagidek bir xil belgilarni ajratadilar. Bu belgilar turli lug‘at izohlarida mavjud bo‘lib, berilgan FB ning markaziy yoki konstant qismini tashkil qiladi. Shuningdek, turli izohlarda u yoki bu FB ma’nolarining ma’lum farqlarga ega bo‘lgan qismini tashkil etadigan, qo‘llanilish kontekstidan ma’lum bo‘lgan turli belgilar ajratiladi. Shu munosabat bilan aytish mumkinki, til birliklarining kontekstual ma’nosi sabab –oqibat munosabatlarining doirasiga kirib qolgan. Bir tomondan, u ayrim hollarda til birligining qabul qilingan lug‘aviy ma’nosiga ta’sir qilishi mumkin, boshqa tomondan, u lug‘aviy ma’nodan olingan deb hisoblanadi.

Leksikografiya amaliyotidagi qiyinchiliklardan biri so‘z yoki so‘z birikmasi ma’nosi uning qo‘llanilish doirasi chegaralanishidir. *“Qo‘llanilish ma’no bilan teng emas, unda so‘zning ko‘p mantiqiy imkoniyatlari yashirin... Qo‘llanilish –bu so‘z ma’nolaridan birining mumkin bo‘lgan ayrim hollarda o‘ta individual ishlatilishidir”*. Ko‘pgina mualliflar tomonidan izohli lug‘atlarga xos bo‘lgan so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanilish ko‘lami ta’kidlangan.

Ko‘rsatilgan muammo butunlay frazeologik materialga borib taqaladi. Ammo, FB so‘zdan ko‘ra ko‘proq xususiyatlar, ya’ni nutqiy ma’no xilma-xilligi imkoniyatlariga ega. FB nutq jarayonida qo‘shilishi mumkin bo‘lgan bir necha ma’no jihatlaridan tashkil topgan: leksem–integrantlar ma’nosi rejasi, FB obrazliligi (agarda bu mumkin bo‘lsa) asosida yotgan o‘zgaruvchi so‘z birikmalarining taxminiy ma’nosi, taxminiy frazeologik ma’no, shu bilan birga FB ma’nosini tasvirlashda berilgan FB ning relevant semantik belgilarini FB ning alohida aniq qo‘llanilishi doirasidan ajratish (so‘z ma’nosini tasvirlashga nisbattan) qiyinroq. Shunga asoslanib, leksikografik manbalarda FB ma’nolarining bir xilda nechog‘lik izohlanishini alohida ta’kidlash kerak.

Demak, FB ifoda plani bilan mazmun planning o'ziga xos qarama qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga ko'ra FBlar alohida yondashishni talab qiladi.

FBlar o'ziga xos ifoda va mazmun planiga ega birliklar sifatida til tizimida turli ma'no munosabatlariga kirishadi, ya'ni leksik birliklar singari FBlarda ham ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, zid ma'nolilik va variantdoshlik kabi ma'no munosabatlari kuzatiladi.

Bittadan ortiq ma'noni anglata olishi til birliklari uchun xos xususiyat bo'lib, iboralarning ma'lum bir qismida ham uchraydi. Ammo leksik polisemiya bilan farqli ravishda, frazeologik polisemiya o'ziga xos xususiyatlariga ega. Frazeologik polisemiya ham xuddi leksik polisemiya bo'lganidek bosh ma'no va yasama ma'no farq qilinadi. Ammo leksik polisemiya bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiya bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi.

Frazeologizmlarining ko'pchiligi ikki yoki uch ma'noli, shuningdek to'rt ma'noli so'zlashuv FBlari ham mavjud. Ko'p ma'noli iborada uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Ya'ni ibora nechta ma'nodan tashkil topganiga qaramay, ma'nolar orasida bog'lanish, umumiylik seziladi.

Ammo ba'zi iboralarning ma'nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini bajarmaydi, har biri o'zicha shakllangan bo'ladi, voqe'likdan har gal har xil obraz olish asosida tug'iladi.

Frazeologik sathdagi ko'p ma'nolilikni paradigmatic jihatdan assimetriyaga qiyoslasak bo'ladi, zero, u denotativ ma'noning, nominativ va signifikativ aspektlarining o'zaro nisbati o'zgarishi natijasida yasaladi. Frazeologik ma'nodagi signifikativ aspekt deganda ma'lum bir ma'noni ifodalayotgan tushuncha mohiyati nazarda tutiladi. Denotativ aspekt asosida denotativning, bir turdagi predmetlar yoki abstrakt tushunchalar umumiy belgilari, yagona bir tushunchaning keng hajmi sifatida aks ettiriladi. Frazeologik polisemiya

ma'noning yangi qirralari paydo bo'lishida nafaqat denotativ ma'no balki konotativ birlik ham muhim rol o'ynaydi.

Nominativ nuqtai nazardan, polisemiya nominatsiya jarayonining natijasi hisoblanadi. Polisemiya FB semantik tarkibidagi turli o'zgarishlar natijasi desak ham xato bo'lmaydi. Chunki vaqt o'tishi davomida tilning semantik tarkibidagi turli o'zgarishlar, ma'noning kengayishi, torayishi kabilar ko'p ma'nolilikga olib boradi.

Frazeologik polisemiya metaforaga asolangan ma'no ko'chishi yoki metonimiyaga asolangan ma'no ko'chishi natijasida hosil bo'lgan yangi ma'nolar farqlanadi .

Metafora asosida yangi ma'nolarning paydo bo'lishi fe'lli frazeologik birliklar ichida mahsuldor usul hisoblanadi.

Metonomiya asosida ma'no kengayishi bo'lsa frazeologik birliklar ichida uncha keng tarqalmagan bo'lsa ham uchraydi

Ma'noning kengayishi agar FB o'z ma'nosida ham, yangi orttirilgan ma'noda ham qo'llanila boshlansa polisemiya olib boradi. Agar FB ning ilk ma'nosi iste'moldan chiqib arxaizmga aylansa, bunday FB ni biz polisemantik birlik deya olmaymiz.

Frazeologik polisemiya ko'pincha FB komponentlari orasidagi bog'liqlik, shuningdek frazeologizmlarning struktur jihatdan o'ziga xosliklari bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'noning kengayishi ba'zi hollarda ma'no umumlashishiga, konkretan umumlashma ma'noga yalanishiga olib kelishi mumkin.

Frazeologik sathdagi ma'no kengayishdagi yana bir o'ziga xos jihat, metaforik o'zgarishlar natijasida frazeologik birlik ma'lum bir sohadan boshqa sohaga o'tishi mumkin.

Iboralarda polisemiya muammosi bilan omonimlikmuammosi bevosita bog'liq hodisalar sanaladi. Agar ikki FB ma'nolari orasida umumiy invariant belgi mavjud bo'lmasa, bunday birikmalar o'zaro omonim birliklar hisoblanadi. Frazeologik omonimiya ko'pincha polisemantik iboralar ma'nolari orasidagi

bog‘lanishning uzilib ketishi natijasida paydo bo‘ladi. Shuningdek omonimlik frazeologizmlarning turli etimologik tarixga ega bo‘lishidan ham paydo bo‘lishi mumkin.

FBlarda omonimiya hodisasi juda kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. Shuningdek frazeologizmlar omonimiyasi erkin birikmalar omonimiyasidan bir necha jihatlari bilan ya‘ni ma‘no, shakl hamda son jihatdan farqlanadi. FBlar komponentlari bir-biridan paradigmatic va sintagmatic munosabatlari bilan o‘zaro farqlanishi bilan ajralib turadi. Bunga bir necha omillarni sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin .

-birinchidan frazeologik ma‘no ustama ma‘no bo‘lgani sababli nisbattan serqirra, murakkabroq tuzilishga ega bo‘ladi;

-erkin birikmalarda struktur-grammatik imkoniyatlar FBlarga qaraganda ko‘proq bo‘ladi;

-frazeologik birliklar omonimligida ma‘lum bir ibora tarkibida birdaniga bir necha so‘zlar mos kelishi kerak bo‘ladi;

Umuman frazeologik omonimiya bir necha omillar ta‘sirida vujudga kelishi mumkin :

- 1) polisemantik birliklar ma‘nolari orasidagi bog‘lanishning yo‘qolib ketishi;
- 2) turg‘un birikmalarning takroran metaforizatsiyaga uchrashi;
- 3) erkin birikmalar ma‘nolarining turg‘unlashishi;
- 4) frazeologik birikmalar o‘xshligining buzilishi;

Frazeologik omonimiya ma‘lum bir iboraning ikki ma‘noda ishlatilishi shuningdek ma‘lum bir iboraning ikkitadan ko‘p ma‘noda ishlatilishi natijasida kuzatilishi mumkin.

3.3. Sinonim, antonim FBlarning o‘ziga xos semantik-funksional xususiyatlari

Frazeologiyada antonimlikni biz lingvistik hodisa va sinxronlik planidagi til birliklarining ichki tizimiy munosabatlari ma‘no aloqalarini tadqiq etish aspektlaridan biri sifatida qaraymiz.

Frazeologik antonimlar tahlili ma'lum FB ning strukturali ma'no va stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Antonimlik va frazeologizmlarni o'rganish FB variantlilik va sinonimlik munosabatlar mavjudligi kabi bir qator hodisalarni tushunishga yordam beradi.

Antonimlik ma'no aloqa turlaridan biri bo'lib, u yoki bu so'z yoxud so'z birikmalarini ma'no aspektini qarama qarshi qo'yish natijasida yuzaga keladi.

Frazeologik antonimiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo'ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma'noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir. Ma'noni farqlash belgilari frazeologizmlarning ma'lum ma'nolarini bir necha leksikografik manbalarga binoan kontekst orqali tekshirish tahlili natijasida ajratiladi. Ular quyidagi belgilarga qarab farqlanadi:

1) ma'nosi butunlay tushuniladigan ikki antonim so'z yoki tarkibida frazeologizmlar ma'nosini tushuntiradigan so'z birikmalari bo'lgan antonim so'zlar:

2) ikki so'z birikmasi, bir holda tasdiq ikkinchisida inkor:

3) bir-biriga semantik jihatdan qarama qarshi bo'lgan ikki so'z birikmasi-frazeologizm yoki so'z va so'z birikmasidan biri mumkin bo'lgan antonimiga sinonim frazeologizm bo'lishi mumkin, boshqasi erkin so'z birikmasi yoki mustaqil so'z bo'lishi mumkin. Bunday ma'no farqlovchi belgilar u yoki bu frazeologik antonimlarning antonimik differensiatori bo'ladi va ularni bemalol frazeologik antonimlar qatoriga kiritish mumkin.

FBlar antonimiyasi leksik antonimiyadan farqlanib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, belgini darajalab ko'rsatish mumkin bo'lgan holatlarni ifodalayotganda, belgining har ikkala tomoni (musbat-manfiy) orasida oraliq FB larni belgilab ko'rsatish mumkin.

Frazeologik antonimlar xuddi frazeologik sinonimlar kabi bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo'lishi mumkin. Bir uslubga xos frazeologik antonimlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi

Turli uslublarga xos bo'lgan frazeologik antonimlar bo'lsa turli funksional uslublarda qo'llanila olishi bilan bir-biridan farqlanadi .

Frazeologik antonimlar antonimik uyalar, qatorlar va guruhlar tarkibiga kiradi.

Antonimik uyalar tarkibiga, antonim komponentlarga ham, umumiy komponentlarga ham ega bo'lgan birliklar kiritiladi .

Antonimik qator tarkibiga faqat antonim komponentlarga ega bo'lgan birliklar kiritiladi.

Frazeologik antonimiyada, iboralar ma'lum bir qatorlarni tashkil qilar ekan, bu antonim qatorlar o'z navbatida quyidagi differensial belgilar bilan bir-biridan farqlanadi :

- 1) antonimik qator bo'laklari tuzilishi;
- 2) antonimik qator bo'laklari o'rtasidagi ichki aloqalar;
- 3) antonimik qator bo'laklarining soni;

Antonimik juftliklardagi frazeologik birliklarning semantik jihatlari hamda uslubiy xususiyatlariga ko'ra turlicha ichki munosabatlarni ifodalab kelishi mumkin, ya'ni :

-agar ikkita bir xil ma'noli, semantik teng frazeologizmlar qarama-qarshi qo'yilsa ichki aloqalar bir xilda bo'ladi:

-agar ikkita ko'p ma'noli stilistik teng bo'lmagan hamda, qo'llanilish doirasi bilan bir-biridan farqlanadigan frazeologizmlar, ikki yoki undan ortiq frazeologizmlar qarama qarshi qo'yilsa, ichki aloqalar ko'p qirrali bo'ladi:

-agar bir ma'noli frazeologizmlar ko'p ma'noliga qarama-qarshi qo'yilsa, ichki aloqalar bir o'lchovli va ko'p o'lchovli bo'lishi, shuningdek antonimik qator bo'laklari ichida stilistik jihatdan teng yoki noteng bo'lgan, bir xil turlicha qo'llanilgan bir ma'noli yoki ko'p ma'noli frazeologizmlar bo'lishi mumkin:

Turli tuzilishga ega frazeologik antonimlarning antonim qatorlariga turli his-tuyg'uli va stilistik xususiyatlar xos bo'lgan turli leksik tarkibli frazeologik sinonimlar, frazeologik strukturali sinonimlar kiradi. Frazeologik variantlar yangi antonim hosil qilmaydi, ular berilgan bir juft frazeologik antonimlarning

frazeologik variantlari bo'lib hisoblanadi. Antonimik qatorni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning strukturali-semantik xususiyatlariga ko'ra frazeologizmlarning antonimik qarama-qarshi qo'yish usullari belgilanadi.

Antonimik aloqalar frazeologik birliklar uchun xarakterli jihatlardan ekanini hisobga olgan holda uni to'liq anglash uchun frazeologik sinonimiyaga ham alohida to'xtalib o'tish joiz.

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, iboralar orasida ham keng tarqalgan. Buyuk frazeolog tilshunos A.B. Kunin frazeologik sinonimlarga quyidagicha ta'rif bergan: "Frazeologik sinonimlar bu koreferent frazeologizmlar bo'lib, bir grammatik sinfga kiruvchi, umumiy hamda differensial semantik komponent larga ega bo'lgan, stilistik jihatdan o'xshash va noo'xshash bo'lgan birliklardir .

Ikki iborani sinonim deb atash uchun ular aynan bir ma'noni anglatishi shart. Ammo bu bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish noto'g'ri. Harbir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga, uslubiy-funksional xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'lishi mumkin bo'lib, shulardan biri ma'no qirrasidagi farqdir.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish lozim buning uchun iboralarning so'z komponentlariga diqqat qilish lozim. Leksik tarkibida aynan bir so'z qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi .

Frazeologik sinonimlar bilan variantlar o'rtasida ko'pgina umumiy tomonlar mavjud. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik sinonimiya variantdoshlikka nisbattan ancha keng tushunchadir. Frazeologik sinonimlar va frazeologik variantlar ingliz tilining kuchli tasviriy uslubiy manbalari sanaladi. Shuning uchun lug'atlarda frazeologik sinonimlar ham frazeologik variantlar ham o'z aksini topishi lozim. Variantdosh FBlarni sinonim FBlardan farqlash frazeologik stilistikaning eng muhim masalalaridan biridir. Bu hol ayniqsa sinonim iboralarning uslubiy tarmoqlanishi haqida so'z yuritilayotgandamuhim ahamiyat kasb etadi.

Sinonimiya–ma’no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma’nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatga polisemantik ibora qatnashsa iboradan emas balki konkret frazeologik ma’nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma’no o’zicha sinonimga ega bo’lishi yoki bo’lmasligi mumkin.

Sinonimik munosabatga qatnashuvchi (bir sinonimik uyaga birlashuvchi) iboralarning miqdori ham har xil: ko’pchilik uyalar ikki sinonimli, uch sinonimli uyalar ham anchagina, to’rt iborani birlashtiruvchi uyalar ham mavjud.

Frazeologik uyalar tarkibiga turli ko’rinishli hamda turli xususiyatli frazeologik birliklar kiritilishi mumkin:

- 1) Umumiy komponentlarga ega bo’lgan frazeologik sinonimlar:
- 2) Ma’nodosh hamda ma’nodosh bo’lmagan komponentlarga ega bo’lgan frazeologik sinonimlar:
- 3) Umumiy komponentlarga ham, ma’nodosh komponentlarga ham ega bo’lmagan frazeologik sinonimlar:

Frazeologik qatordagi sinonim iboralar umumiy bir ma’noni anglatishiga qaramay har doim ham birining o’rniga ikkinchisi qo’llanila olmaydi. Chunki har bir ibora o’ziga xos emotsionallikga, uslubiy semalariga ega bo’ladi. Sinonimlik uchun xos bo’lgan umumiy ma’no semalaridan tashqari o’ziga xos ma’no qirralarini o’zida mujassamlashtiradi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlab o’tish mumkinki, antonimlik va sinonimlik hodisalarini o’rganish ingliz tili frazeologizmlarini kengroq tushunishga hamda ularning o’zaro semantik stilistik munosabatlarini kengroq ochib berishga asos bo’lib xizmat qiladi.

Antonimik va sinonimik munosabatlar FBlar uchun xarakterlidir. Aynan mana shu ma’no munosabatlari tufayli frazeologik birliklarning ma’noviy paradigmalarini tuzish, hamda ularni semantik jihatdan izohlash, uslubiy o’ziga xosliklarini ifodalab ko’rsatishimiz mumkin.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Frazeologik birliklar tilda ma'lum bir harakat, holat, belgini nafaqat nomlab keladi, balki uni baholash, undagi emotsional qirralarini, ironiya, tantanavorlik, hazil-mutoyiba, ishonmaslik, shubha kabi uslubiy nozikliklarni ko'rsatish xususiyatiga ham ega. Shu sababli FBlarning semantik talqinida, ularning stilistik xususiyatlarini alohida tavsiflab o'tish joiz. Ingliz tilida so'zlashuv FBlarini ma'noviy paradigmalarga ajratib tadqiq qilishimiz yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-FBlarning emotsionalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga keladi;

-FBlarning uslubiy ma'nosi undagi ikki komponentdan, ekspressiv baho bo'yog'i hamda funksional uslub bo'yog'idan iborat;

-FBlarni uslubiy jihatdan farqlashda etimologik, obrazlilik, semantik, ohangdoshlik kabi bir qator mezonlar mavjud bo'lib, ularning har biri FBlarni uslubiy- semantik jihatlarini yoritishga xizmat qiladi;

-FBlar o'ziga xos ifoda va mazmun planiga ega birliklar sifatida til tizimida turli ma'no munosabatlariga kirishadi, ya'ni leksik birliklar singari FBlarda ham ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, zid ma'nolilik va variantdoshlik kabi ma'no munosabatlari kuzatiladi;

-Frazeologik polisemiya kam uchraydigan hodisa hisoblanib, leksik birliklardan farqli ravishda FBlarda bosh ma'no ham keyingi ma'nolar ham obrazli (ustama) ma'no hisoblanadi;

-Frazeologik birliklarda ko'p ma'nolilik ma'noning kengayishi, birlik tarkibidagi metaforik o'zgarishlar, konkret ma'nodan umumiylik tomon (a lone wolf), yoki aksincha umumiylikdan konkretlik tomon (on the hole) o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi;

-Frazeologik omonimiya polisemantik iboralar tarkibidagi umumiy invariant bog'lanishning yo'qolib ketishi natijasida yuzaga keladi.

-Frazeologik antonomiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo'ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma'noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir;

-Frazeologik antonimlar xuddi frazeologik sinonimlar kabi bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo'lishi mumkin. Bir uslubga xos frazeologik antonimlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi;

-Frazeologik sinonimlar frazeologik qator uchun umumiy ma'nodan tashqari o'ziga xos ma'no qirralariga, uslubiy xususiyatlariga ega bo'ladi;

Frazeologik birliklar tilimizni ta'sirchan, mazmunli hamda jonli bo'lishini ta'minlovchi birliklar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday birliklarni nutqda qo'llanilishi so'zlovchining intellektual salohiyatini belgilab bergani bois, ularni nutq momentida, qolaversa badiiy talqinda bajaradigan funksiyalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Har qanday FB uchun xos bo'lgan muqim funksiyalar mavjud bo'lib, ular nominativlik, kommunikativlik hamda kognitivlik funksiyalaridir. Nominativ funksiya FBlarining moddiy dunyodagi ma'lum bir obyektlar, harakat yoki holatlarni nomlash yoki ifodalab kelishida namoyon bo'ladi. FBlarining kommunikativlik funksiyasi esa nutq jarayonida ma'lum bir fikr ifodalash, ma'lum bir ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun foydalaniladi va bu ularning kommunikativ birlik ekanligini tasdiqlaydi.

Nominativ funksiya bilan bevosita bog'liq bo'lgan funksiya bu kognitiv funksiya hisoblanadi. Chunki borliqdagi narsa-predmetlarni jamiyatda tushunganimizdek aks ettiramiz. Ular ongimizda o'z inikosini topadi. FBlar ham xuddi til kabi ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki FBlar ma'lum bir jamiyatda, ma'lum bir shaxslar tomonidan kashf etiladi va mana shu jamiyatda kommunikativ vosita sifatida foydalaniladi.

FBlar uchun xos bo'lgan o'zgaruvchan funksiyalarga semantic funksiya, volyuntativ funksiya, deytik funksiya, pragmatik funksiya, stilistik funksiya kabilar kiritiladi.

Stilistik funksiya aksariyat so‘zlashuv FBlari uchun xos bo‘lib, ular ma’lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmet haqida xabar yetkazish bilan bir qatorda unga qo‘shimcha emotsional –ekspressiv bo‘yoq yuklaydi.

Shuningdek, rus tilshunosi Gavrin talqiniga binoan FBlar yana nutq momentida, nutqni ixchamlashtirish, obrazli ifodalash, baholash bir qator muhim funksiyalar bajaradi.

FBlar nutq momentida ham badiiy talqinda qo‘llanilganda ham ikki xil uzual va okkazional holatda qo‘llanilishi mumkin. Ya’ni FBlarning uzual ma’nosi uning lug’atda aks etgan ma’nosi bo‘lsa, okkazional ma’nosi frazemaning ma’lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma’nosi hisoblanadi. FBlarni okkazional xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Uning ta’limotiga binoan FBlar to‘rt xil usulda qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish FBlarning lug’aviy ma’nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazional ifodalanish FB ma’nosidagi turli xil o‘zgarishlarni taqqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazional ifodalanish bo‘lsa FB tarkibini umuman o‘zgartirib yuboradi. Bunday ifodalashni tilshunosi Nachischione “portlash” deb ham atagan. FB tarkibidagi okkazional o‘zgarishlarni tahlil qilish zamonaviy ingliz frazeologiyasidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki aynan FBlarning okkazional qo‘llanilishini tahlil qilish yordamida matndagi ichki ma’no yoritilib, ekspressiv–stilistik xususiyatlar aks ettirilishi mumkin.

X U L O S A

Frazeologiya til va madaniyatning o'zaro aloqalarini yaqqol tushuntiruvchi tilshunoslik bilimlarining eng yuqori cho'qqisidir. Frazeologiya alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, hozirda frazeologiya o'zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo'lgan alohida tilshunoslik bo'limi sifatida shakllanib bo'ldi. Undagi ko'plab muammolar hali o'z yechimini kutayotgan bo'lsada, hozirgi zamon tilshunosligida dolzarb frazeologik masalalar birin-ketin yoritilmoqda.

Fransuz frazeologiyasida bizning tadqiqot doiramizga kiruvchi, so'zlashuv uslubiga xoslangan FBlar nisbattan keng tarqalgan hisoblanadi. So'zlashuv uslubi maxsus tayyorgarlik ko'rilmay shakllangan uslub sistemasidir. So'zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko'rmay vaziyatga qarab fikr yuritadi, bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aktivlik va operativlik natijasida til vositalarini iqtisod qilishga intiladilar va natijada so'zlashuv FB'lari vujudga keladi. So'zlashuv nutqida modal-imperativ formalar ko'p ishlatiladi. Kundalik aloqada bevosita suhbatdoshning fikriga ta'sir o'tkazish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi. FBlar o'zlarining semantik, funksional, uslubiy va sintaktik xususiyatlariga ko'ra so'z birikmalari, sodda va qo'shma gaplardan ajralib alohida bir turni tashkil etadi, ya'ni FB'larda so'z, so'z birikmalari va gapning struktur belgilari neytrallashib, yaxlitlik kasb etadi. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib borayotgan fransuz tilshunosligida turli tipdagi so'z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi aloqalar o'rganilishi muhim.. Afsuski so'z va so'z birikmalari va gap uzoq yillar davomida tilshunoslikning asosiy birliklari sifatida qabul qilib kelindi. Bu esa birinchidan til birliklarining ierarxik (pog'onali) munosabatini chuqur tahlil etmaslikka olib keldi, ikkinchidan esa boshqa til birliklari, jumladan FBlar semantikasi, funksional-uslubiy xususiyatlari tadqiqqiga soya tashlab turdi.

Fransuz FBlari xalq og‘zaki ijodida, kundalik muloqotda keng qo‘llanilib, umuman uy-rozg‘or buyumlari, kiyim-kechak nomlari, oziq –ovqat nomlari, pul birliklari, kundalik ish-harakatlarni, shuningdek insonning emotsional-ruhiy holatlarini ifodalab keladi. So‘zlashuv frazeologizmlari oddiyligi, maishiy xarakterga egaligi, ba‘zan satirik yoki hajviy uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lishi va yuqori darajadagi emotsionalligi bilan kitobiy frazeologizmlardan ajralib turadi. Shuningdek FBlarining tarkibiy qismida ko‘pincha konotativ element yetakchilik qiladi. Chunki FBlar ob‘yektiv reallikni, ma‘lum voqea hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbattan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. FBlarining asosiy qismi ma‘no jihatdan insonga qaratilgan: ular kishining biror fizik, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti harakatini baholaydi. FB ning denotativ ma‘nosiga emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik yuklaydi. Shu sababi FBlarni tahlil qilganda ularning uslubiy tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. FBlarining uslubiy jihatdan farqlash deganda, quyidagi dolzarb masalalar nazarda tutiladi: uslubiy ma‘no va uning komponentlari, FBlarni uslubiy jihatdan farqlash mezonlari, ingliz frazeologik sistemasining uslubiy qatlamlarini belgilash, ko‘p ma‘noli va sinonim FBlar hamda ularning uslubiy xususiyatlari, antonim, omonim FBlar va ularning o‘ziga xosliklari kabi masalalar.

Frazeologik polisemiya kam uchraydigan hodisa bo‘lsa ham fransuz frazeologik qatlamida kuzatiladi. Akademik A.V Kunin tadqiqotiga binoan, faqat 3% FBlargina ko‘p ma‘noli hisoblanadi. Leksik birliklardan farqli ravishda FBlarda bosh ma‘no ham keyingi ma‘nolar ham obrazli (ustama) ma‘no hisoblanadi.

Frazeologik omonimiya esa, polisemantik iboralar tarkibidagi umumiy invariant bog‘lanishning yo‘qolib ketishi natijasida yuzaga keladi. Frazeologik antonomiyada frazeologizmlarning semantik qarama qarshiligini aniqlovchi differensiatorlar mavjud bo‘ladi. Antonim differensiatori bu frazeologik antonimlarning ma‘noni farqlash belgilarining rasmiy ifodalanishidir. Barcha tur FBlar bir uslubga xos yoki turli uslublarga xos bo‘lishi mumkin. Bir uslubga xos

frazeologizmlar ekspressiv-emotsional xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilmaydi.

FBlarni tahlil qilishda ularning funksional xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Har qanday FB uchun xos bo'lgan muqim funksiyalar bilan bir qatorda, frazeologizmlarning o'zgaruvcham funksiyalari ham misollar yordamida ushbu tadqiqot ishimizda yoritilib berildi.

FBlar nutq momentida ham badiiy talqinda qo'llanilganda ham ikki xil uzual va okkazional holatda qo'llanilishi mumkin. Ya'ni FBlarning uzual ma'nosi uning lug'atda aks etgan ma'nosi bo'lsa, okkazional ma'nosi frazemaning ma'lum bir nutq momentida yoki matnda anglatib kelayotgan ma'nosi hisoblanadi. FBlarni okkazional xususiyatlarini birinchilardan bo'lib, rus tilshunosi A.V.Kunin tadqiq etgan. Kunin ta'limotiga binoan FBlar to'rt xil usulda qo'llanilishi mumkin bo'lib, birinchi va ikkinchi darajali uzual ifodalanish FBlarning lug'aviy ma'nosiga asoslansa, birinchi darajali okkazional ifodalanish FB ma'nosidagi turli xil o'zgarishlarni taqozo etadi. Ikkinchi darajali okkazional ifodalanish bo'lsa FB tarkibini umuman o'zgartirib yuboradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazariy manbalar:

1. Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётнинг пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис IX сессиясида сўзлаган нутқ // Тошкент. М. туп. Т6. 1998. – 312 б.
- 2.
3. Алексеев Г.П., Скепеская Г. И., Тарасова А.Н., Рощупкина Е.А. Grammaire pratique du français moderne – Moscou: ВШ, 1985. -189 р.
4. Аристотель. Аналитика. Первая и вторая . Госполитиздат.- М., 1952.
5. Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: ВШ, 1979. –396 с.
6. Бушуй А.М. Язык и действительност. – Ташкент:.. Фан, 2005. -144с.
7. Бушуй Т.А., Сафаров Ш. К истории изучения современный романистики (Универсализм и типология) // Хорижий филология. – Самарканд:.. СамДЧТИ, 2007, -№ 3. 6-15с.
8. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избр. труды Т – 3 – Лексикология и лексикография М., 1977 стр 64
9. Виноградов В.В. Русский язык . –М., Высшая школа, 1972 стр 319
10. Гак В.Г. Беседы о французском слове. – М.: МО, 1966. - 335 с.
11. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология М., В.ш., 1986 стр 51 – 62.
12. Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. Москва, 1986. - 94 с.
13. Гурычева М. С. Очерки по синтаксису новофранцузского языка М: Вш, 1965 стр 129 – 130.
14. Гурычева М.С. Очерки по синтаксису новофранцузского языка. – М.: ВШ, 1965. – 340 с.
15. Заславская П. И., Алямская Н. В., Пашинина Р. А. Грамматика французского языка . Москва, 1969 -285 с.
16. Илия Л.И. Грамматика французского языка . Москва, 1955 -213 с.

- 17.Илия Л.И. Грамматика французского языка . Москва, 1964 - 237с.
- 18.Илия Л.И. Очерки по грамматике современного французского языка. М.: ВШ, 1970. – 394 с.
- 19.Илия Л.И. Синтаксис современного французского языка. Москва, 1962. - 250 с.
- 20.Караева М.Х., Литочевская М.Ю. Француз тили грамматикаси. Тошкент, 1977. - 135 б.
- 21.Костеская Е.О. и Карандашевский В.И. Грамматика французского языка . Москва, 1983. - 250 с.
22. Левит З. Н. к проблеме изучения компонентов фразеологических единиц (на материале французского языка)// Филологические науки М., 1965 № 2 стр 78.
- 23.Маматов А.Е. История и теория языковой нормы. - Шымкент, 2006. – 96 с.
- 24.Назарян А.Г. Фрвзеология современного французского языка.- М: Высшая школа, 1976.- С. 110.
- 25.Николская Е . К., Т. Й. Голденберг Grammaire Française - Moscou , 1982 . -290 p.
- 26.Николская Е.К., Голденберг Т.Й. Grammaire Française Moscou , 1965. - 291p.
- 27.Реферовская А., Вассилева А.К. Essai de grammaire française. – Ленинград, 1973. - 171 с.
28. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А. Словарь –справочник лингвистических терминов. М., 1976 стр 143
- 29.Тенер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – 656 с.
30. Феньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод французского редкол.: Г. В. Степанов (Предисловие) и др – Вступ статья о общении ред. В. Г. Гака М., прогресс 1988 стр 24.
- 31.Щерба Л. В. Языкое система и речевая деятельность Л., 1974 стр 177

32. Arrivé M., Gadet F., Galmiche M La grammaire d'aujourd'hui -Paris, 1986. 83-88 p.
- 32.Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning shakllanish va yashash qonunlari) I I I qism. Toshkent, 1999. -148 b.
- 33.Bescherelle 3 La grammaire pour tous -Paris, 1990. -37 p.
- 34.Bushuy Tatyana. Umumiy tilshunoslik. – O'quv qo'llanma. – Samarqand:. SamDCHTI, 2002. – 50 b.
- 35.Clatigng M. La place des adjectifs épithètes dans dix oeuvres de Nerval + / “Ze français moderne” Parir, 1973 j 3. page 203 – 232.
- 36.Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // Le français moderne . – Paris, 1973. N3. – P. 213-232.
- 37.Gak V. G. Fransuz tili nazariy rammatikasi. Samarqand, 2002 - 97 b.
- 38.Gourmont R. de Esthetique de langue française; Za déformati f – la métaphore, le cliché, le vers libre – le vers populaire Plan de la Ed. d'aujourd'hui, 1985 page 124 – 125.
- 39.Grosse G. Syntahe du dépossessif // Déterminants: syntaxe et sémantique Paris 1986 page 87 -88.
- 40.Grosse G. Syntaxe du déterminant possessif // Déterminans: syntaxe et sémantique. – Paris, 1986. 87-111p.
41. Guirand P. La syntaxye du français. –Paris, 1863.
42. Guy Capelle, J. L. Frérot Grammaire de base du français contemporain. -Moscou ,1983. -137 p.
- 43.Hamdani Orziqulov Fransuz tili nazariy grammatikasi. – Samarqand, 2000. - 119 b.
44. Le Bidois G. et. R. Syntaxe du français moderne.- Paris, 1968.
- 45.Mahmudov N., Nurmonov A O'zbek tilining nazariy grammatikasi . Sintaksis. Toshkent, 1995. 59 – 93 bet.
46. Maurice Grevisse Une bon Usage. –France :. Duculot, 1993. 321 – 516 - page.

47. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 230 b.
48. Ruwet N. Théorie syntaxique et syntax du français. – Paris, 1972.
49. Steinberg N. Grammaire française Морфология и синтаксис – Москва, 1966. -350 с.
50. Suvonova N. N. Matn tahlili - Samarqand: SamDCHTI, 2010. - 38 b.
51. Suvonova N.N. Tahliliy o'qish o'quv uslubiy qo'llanma Samarqand: SamDCHTI, 2010.
52. Tenchea M. La structure sémantico-distributionnelle des syntagmes prépositionnels (+temps) en français. – Timisoara, 1986. -37 p.
53. Tesnière L. Eléments de syntaxe structurale. – Paris, 1959. -380 p.
54. Umbarov N., Hamrakulov G. Hozirgi zamon fransuz tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 104 b.
55. Weyenrich N. Grammaire textuelle du français /Trad.par Dalgalian G., Malbert D. – Paris.: Didier: Hatier, 1989. – 672 p.
56. Yoqubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanishining semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005. - 224 b.

2. Lug'atlar :

1. Dictionnaire des œuvres littéraires de la langue française en quatre volumes. – Paris, 1994. – 2158 p.
2. Dictionnaire ouzbek - français. – Paris, 2001. – 321 p.
3. Genouvrier E., Desirat C., Horde T. Dictionnaire des synonymes. – Paris, 2001. – 743 p.
1. Godefroy F. Dictionnaire de la langue française classique. 8 éd. I-III. – Paris, 1998-2000. – 750 p.; 784 p.; 851 p.
2. Greimas A.J. Le langage populaire. -10.éd. – Paris, 2004. - 778p.
3. Hachette. Dictionnaire encyclopédique en couleur. – Paris, 1997. – 2066 p.
4. Larousse. Dictionnaire des difficultés de la langue française. – Paris, 1992. – 435 p.

5. Larousse. Petit Larousse en couleurs.–Paris,Libr.Larousse,1988.–1920 p.
6. Le petit Larousse illustré. – Paris, 2001. – 1786 p.
7. Le Robert. Dictionnaire historique de la langue française en deux volumes. – Paris, 1995. – 2400 p.
8. Nouveau petit le Robert. – Paris, 1994. – 2467 p.
9. Nouvelle encyclopédie Bordas en dix volumes.– Paris, 1990.–6096 p.
10. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. -Nouv. ed. rev. et augm. – Paris, 1984. –1035 p.
- 11.Ščerba L.V., Matoussevitch M.I. Dictionnaire russe-français. –Moscou, 1997. – 847 p.
- 12.Tobler A.- Lommatch E. Dictionnaire de la langue française. -18.éd. – Paris, 2001. - 990p.
- 13.Французско-русский фразеологический словарь / В.Г.Гак и др. /Под ред. Я.И.Рецкера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.
17. Фалсафа: қомусий луғат, Т., -2004.- 496 б.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Давлат илмий нашриёти, Т., 2006.

3. Badiiy asarlar:

4. Internet manbalar:

I L O V A

ISHDA QO‘LLANILGAN FRANSUZCHA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR RO‘YXATI VA ULARNING O‘ZBEKCHA TALQINI

Fransuzcha frazeologik birlik:	O‘zbekcha talqini :
<i>On t’en fricasse -</i>	Bu senga tegishli emas
<i>A votre aise -</i>	O‘zing bilasan
<i>Nous voilà bien logés-</i>	Ja yaxshigina axvolda edikda
<i>Quel dégourdi-</i>	Voy lapashang, besunaqay-ey
<i>Pas d’ambassadeur-</i>	Dabdabali yurish
<i>Gros comme deux liards de beurre-</i>	Sezilar-sezilmas
<i>Baiser les mains à qn-</i>	Kaminangizga to‘g‘ri kelmaydi
<i>Accommoder (traiter) qn en enfant (en fils) de bonne maison-</i>	Qilmishiga yarasha jazo olmoq
<i>C ’est un beau (vilain) monsieur-</i>	Tuzukkina yigitcha
<i>Etre mal (bien) fagoté-</i>	Didsiz kiyinmoq
<i>Rossignol (roussin) d’Arcadie-</i>	Arkadiya bulbuli (eshak)
<i>Vilain merle (beau merle)-</i>	Jirkanch nusxa
<i>Coq de paroisse-</i>	Qishloqning old yigiti.
<i>Mal choisi-</i>	Akademik, olim
<i>Invitation à la valse-</i>	Yoqimsiz taklif
<i>Un joli monsieur -</i>	Chiqisha olmaydigan odam, shurtumshuqlik
<i>Un bel oiseau-</i>	O‘ta muhim qush
<i>La galanterie est un peu forte-</i>	Nopok ish
<i>Gai comme un de profundis-</i>	O‘lganini kunidan xursand
<i>C’est à moi à faire et à vous vous taire-</i>	Mening ishim qilish , sizning ishingiz jim turish.
<i>Faire un beau gâchis de sa vie-</i>	O‘z hayotini izdan chiqarmoq
<i>Aller ad patres-</i>	Unisi dunyoga ravona bo‘lmoq

<i>Fin comme une dague de plomb-</i>	Kaltafahm, zehni past odam
<i>Aller(courir, marcher, trotter) comme un Basque-</i>	Oyog'ini quliga olib yugirmoq
<i>Amusant (gai) comme un croque-</i>	Tobutsozdek xursand
<i>Belle question !(quelle question !)-</i>	Qanday savol buldi-ya!
<i>Demain on rase gratis-</i>	Yolg'onchi, vadaboz.
<i>Mon bon monsieur-</i>	Oliyjanoblari .
<i>Le beau malheur-</i>	Katta tashvish (g'am)
<i>C'est la mer à boire-</i>	Bu juda mushkul ish
<i>Batterie de cuisine-</i>	Ikonostas, kukragi medallar bilan to'la
<i>Faire du boudin-</i>	Qon to'kmoq
<i>Un joli mignon-</i>	Zap odam ekanda, odam ham shunaqa buladimi?
<i>C'est (un) Saint-Jean Bouche d'Or</i>	Vaysaqi, safsataboz, nokamtar odam
<i>Réussir un beau coup-</i>	Axmoqlik qilmoq
<i>Une belle équipée -</i>	Axmoqona ish, axmoqona harakat, qiliq
<i>Partisan du moindre effort-</i>	tanbal
<i>La maison du Roi-</i>	qamoqxona
<i>Antre de la chicane-</i>	O'rta olib muhokama qilmoq
<i>Notre grand argentier-</i>	Moliya vaziri
<i>Invalide du pont des Arts-</i>	Fransuz akademiyasining a'zosi
<i>Langue dorée-</i>	So'zamol , gapga chechan
<i>Cela lui fait une belle jambe-</i>	Yaxshigina , mo'maygina ish.
<i>Boule de neige</i>	Qorq tanli
<i>Parler le francais comme une vache espagnole -</i>	Fransuz tilida yomon gapirmoq
<i>Bonne continuation !-</i>	Shunday ruhda davom eting!
<i>Droit comme la jambe d'un chien-</i>	Egri
<i>Tout est pour le mieux dans le meilleur</i>	Qilingan ish foyda.

<i>des mondes possible-</i>	
<i>Auteur par abs -</i>	O'qimagan nodon
<i>Gros comme un centde clous-</i>	Ozg'in, cho'pday ozg'in
<i>Droit comme une faucille-</i>	Ilgakka uxshab bukilgan
<i>L'eau est entreé dans ses souliers par le collet de son pourpoint-</i>	Botqoqqa botdi
<i>Voilà un beau chapeau qu'on lui a missur la tête-</i>	Uni sharmandasi chiqdi
<i>Ne se tromper qu'a son profit -</i>	O'zini xisobiga xato qilmoq (xudbin)
<i>Il en a-</i>	Qilmishiga yarasha jazo oldi
<i>Petit crevé-</i>	O'ta zamonaviy
<i>Faire de l'harmonie-</i>	Shantaj, tovlamachilik qilmoq
<i>Grand genre-</i>	kiborli
<i>Je vous en fais mon compliment -</i>	Nima munosabat bilan tabriklay sizni!
<i>C'est le contraire d'un honnête homme-</i>	Ablax, razil , yaramas odam
<i>Epouser une dot-</i>	Pul uchun uylanmoq
<i>Beau coup-</i>	axmoqlik
<i>Vivre autant que Mathusalem-</i>	Uzoq umr ko'rish